

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



«Himoyaga ruxsat etildi»

Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet dekani,
t.f.n., dotsent:

N.B.Dexkanov

2017-y.

5220300 – Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Mamadaliyev Bahodir Shojalil o'g'lining

**TARIXIY TADQIQOTLARDA AUDIOVIZUAL
MATERIALLARLARDAN FOYDALANISHNING USULLARI**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

Arxivshunoslik kafedrasi mudiri:

t.f.n. A.A.Sarimsokov

2017-y.

BMI rahbari:

Arxivshunoslik kafedrasi

o'qituvchisi, B.B.Abbasov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
 I BOB. AUDIOVIZUAL MATERIALLAR TARIXIY MANBA SIFATIDA.....	 8-37
1.1. Fotografiya, kino va ovozli hujjatlarning vujudga kelish tarixi.....	8-18
1.2. Audiovizual materiallar saqlovchi arxivlar va ularning faoliyati...	18-37
 II BOB. TARIXIY TADQIQOTLARDA AUDIOVIZUAL MATERIALLARLARDAN FOYDALANISH USULLARI....	 38-58
2.1. Audiovizual materiallar tushunchasi va ahamiyati.....	38-47
2.2. Fotografiya, kino va ovozli hujjatlardan foydalanish usullari.....	47-58
 XULOSA.....	 59-62
 FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	 63-65

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz mustaqilligi yildan-yilga tarixiy xotirani tiklash, an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun ulkan imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi Jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"¹gi qarori xalqimiz istiqlol yillarida bosib o'tayotgan tarixiy yo'lning naqadar buyukligi, amalga oshirilayotgan umummilliy dastur va rejalarning benihoya serqirraligini ko'rsatmoqda. Mazkur qaror aholining barcha sotsial qatlamlariga, birinchi navbatda yoshlarga tarixiy bilimlar berishni yanada yuqori saviyaga ko'tarish, O'zbekistonning milliy davlatchiligi eng yangi tarixini o'rganish, targ'ib qilish, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi uchun yangi o'quv-metodik, ilmiy-ommabop ma'rifiy adabiyot tayyorlash va nashr etishni takomillashtirish maqsadida tashkil etildi. Qolaversa, mazkur qaror tarixni rivojlantirishda arxiv manbalarining o'rni va roli naqadar muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Hali "Qizil imperiya" parchalanmagan, mustabid tuzumning eng ashaddiy kuchlari mustaqillik sari qo'yiladigan har qanday qadamni yanchib tashlashga tayyor bir davrda Islom Karimov qat'iy yo'l boshchiga xos siyosiy qat'iyat va ma'naviy jasorat bilan yurtimizni istiqlol sari yetakladi. Sobiq sovet davrida, mustaqillikka hali deyarli ikki yil bor vaqtda Islom Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasida 1989-yil 28-noyabrda bo'lib o'tgan uchrashuvda "Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik"² deb nomlangan nutq so'zladi. Bu nutqda, respublika hayotiga doir dolzarb muammolar to'g'risida gapirib, ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix fani oldiga ulkan vazifalar qo'ydi. Keyingi yillarda tariximizga

¹ Халқ сўзи. 2012 йил 27 январь

² Каримов. И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. — Т.: Ўзбекистон, 2011. — Б. 70

bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tarixni yorituvchi manbalarni o'rganish va ular to'g'risidagi adabiyotlarni yaratish har bir tarixchi uchun dolzarb muammo va kelajak avlodlarimizni mamalakatimiz tarixi bilan tanishtirish kabi ishlar turibdi.

Ma'lumki, 2017-yil fevralda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish to'g'risidagi Harakatlar strategiyasi"da yoshlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib, unda quyidagi vazifalar belgilab berilgan edi:

- Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi³.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizning mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur⁴. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan⁵. Demak, bugungi kunda tarixni yoritishda arxiv manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Arxiv manbalaridan ayniqsa, audiovizual manbalar alohida rol o'ynaydi. Arxiv hujjatlarda tarixning har bir lahzasi, sanasi tilga kiradi, sodir bo'lgan voqea

³ "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш тўғрисидаги Ҳаракатлар стратегияси" // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017 йил. – №6. 70-модда.

⁴ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 14.

⁵ Каримов. И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 4.

hodisalarni hikoya qiladi. Inson biror bir fotosuratni, hujjatli filmni tomosha qilayotgan yoki ovoz yozilgan tasmalarni tinglayotgan paytda shubxasiz voqea, hodisa yuz bergan vaziyat, zamon sururini his etadi. O'sha davr hayoti va holatini ko'z oldidan o'tkazadi, hamda aynan surat yoki filmdan ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarini kitob yoki yozma manbalar orqali olgan axborotdan ko'ra oson eslab qoladi va xotirasida uzoq saqlaydi. Kino, foto va ovozli tasmalar ham tarixiy manbalarning eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Hozirda kino va fotografiyaning shiddat bilan rivojlanishi ham ularning beqiyosligidan dalolat beradi. Xalq boyligi, tarixiy manbalarning eng asosiylaridan biri, shuningdek, kelajak avlod uchun ularni saqlab yetkazib berish zarur bo'lgan bunday hujjatlar hozirda O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanib kelinmoqda⁶.

Tarixiy tadqiqot jarayonida tadqiqotchi tomonidan ushbu audiovizual materiallaridan foydalanish, ulardagi tarixiy jarayonda muhrlangan faktlarini aniqlab mavzusini yoritishdagi asosiy belgilarni aniqlash muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning o'rganilish darajasi. Mavzuga oid bir qancha ilmiy ishlar bajarilgan bo'lsada, asosan ularni ikki guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Chet-el olimlari tomonidan nashr etilgan adabiyotlar;
2. Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi chop etilgan adabiyotlar va ilmiy maqola, dissertatsiyalarni kiritishimiz mumkin.

1 – guruh chet el olimlari tomonidan dissertatsiya, o'quv qo'llanmalar va maqolalar chop etilgan. Jumladan, V. M. Magidov, I. G. Asfandiyarova, A. A. Kuzin, V. M. Matov, K. G. Mitayev, E. I. Kozlovseva, V. V. Stasovlar, L. Mazur⁷, Gerasimov S, R. Edmodsonlarning asar va ilmiy maqolalarida asosan kino, foto va

⁶ Закирова Д. Аудиовизуал меросни ракамлаштиришнинг долзарб масалалари / Халқаро конференция материаллари. – Тошкент, 2016.– №10. – . 144

⁷ <http://dx.doi.org/10.15826/qj.2015.3.117>

ovozli hujjatlar saqlovchi arxivlar faoliyati va audiovizual hujjatlardan foydalanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, A. G. Asfandiyarovaning⁸ o'quv uslubiy qo'llanmasida audiovizual arxivlarning vujudga kelish tarixi, faoliyati, ularda saqlanuvchi hujjatlarning turlari va audiovizual materiallar tushunchalari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

2 – guruh, asosan Sharapov Sh, Isaqova M, D. T. Zakirova, M. Darmonovalar tomonidan nashr etilgan adabiyotlar, dissertatsiyalari va maqolalarida kino tarixi, kino, foto va fono hujjatlar tarixiy manbaviy tahlili qisman yoritib berilgan. Ayniqsa, M. Darmonova⁹ tomonidan yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi va maqolalarida mamlakatimizdagi markaziy davlat arxivlarida arxivshunoslik sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar, audiovizual hujjatlarning o'rganilish tarixi, arxiv faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid audiovizual materiallar saqlovchi arxivlar faoliyati, shuningdek ularda saqlanuvchi materiallardan foydalanish va ulardan tarixiy tadqiqotlarda foydalanish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Bitiruv malakaviy ishiga oid adabiyotlarning kam miqdorda ekanligi uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishida fotografiya, kino va ovozli hujjatlarning paydo bo'lishi, ularni arxivlarga qabul qilinishidan boshlab, ya'ni XIX asr boshlaridan to hozirga qadar bo'lgan davrdagi faoliyati va unda jamlangan hujjatlar tavsifi yoritiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida audiovizul materiallarni ya'ni fotografiya, ovozli va kino hujjatlar yaratilish tarixi, ularni mamlakatimizda o'rganilish tarixi, ilmiy jihatdan o'rganilishi, ilmiy jihatdan tahlil qilish metodlarini ishlab chiqilishi, tarixiy tadqiqotda ulardan foydalanishning o'рни va ahamiyatini ochib berish, asosiy maqsad qilib olinadi.

⁸ Асфадиярова И. Г. Аудиовизуальные архивы: учебно-методическое пособие. – Уфа, 2013. – №1. – С. 98.

⁹ Дармонова М. А. Кино, сурат ва овозли хужжатларнинг тарихий манба сифатида ўрганилиши // Тарихий манбашунослик муаммолари. – Т., 2013. – Б. 87–91.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. Bitiruv malakaviy ishi asosan, mamlakatimizda va xorijda nashr qilingan adabiyotlar, davriy matbuot materiallari, internet ma'lumotlari asosiy manbalar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan ma'lumotlar, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar tarixiy tadqiqot o'tkazuvchilar uchun arxiv manbalarni o'rganishda qolaversa, arxivlarda faoliyat olib boruvchi ilmiy xodimlar tomonidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishi materiallaridan, mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining arxivshunoslik yo'nalishi talabalari uchun "Tasviriy va audiovizual materiallar tarixiy manba sifatida", "Tarix fani sohasida ilmiy- texnika arxivlari", "Arxivshunoslikda ilmiy tadqiqot usullari" kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, ma'ruza matnlar, maxsus kurs va ochiq darslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. AUDIOVIZUAL MATERIALLAR TARIXIY MANBA SIFATIDA

1.1. Fotografiya, kino va ovozli hujjatlarning vujudga kelish tarixi

Bugungi kunda mamlakatimizda tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgar-gan, shu bois yosh O'zbekiston davlati 1991-yilda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Mustaqillikni ilk davridanoq milliy tarixni yaratish masalasi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston tarixini tiklash ishlarida albatta, arxiv manbalari muhim o'rin tutadi. Arxiv manbalarini o'rganishda audiovizual materiallarning o'rne va roli juda muhim. Ushbu audiovizual manbalarga fotografiya, kino va ovozli hujjatlar kiradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, audiovizual materiallarni yaratuvchi qurilmalar asosan XIX asr boshlarida texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kela boshladi. Tarixiy voqealar, jarayonlarni kelajak avlodga yetkazishda fotografiya-ning ahamiyati kattadir. Sababi, fotografiya tarixiy voqelikning ma'lum bir qismini o'zida aks ettiradi va tarixga muhrlab qoldiradi. Shuning uchun ham fotografiyada aks etgan ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmaydigan hujjatlar sirasiga kiritamiz. Qolaversa, arxivshunoslikning asosiy manbalari qatoriga kiritishimiz mumkin. Fotosuratlar yordamida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni uchrashuvlarni, fan-texnika rivojlanishini, shuningdek jamiyatda sodir bo'lgan voqealar yuzasidan bizga batafsilroq ma'lumot beradi.

Fotografiya – yunoncha so'z bo'lib, “fotos” – yorug'lik, “grafo” – yozaman so'zlari birikmasidir¹⁰. O'zbek tilida esa, yorug'likni yozish yoki aniqroq qilib ta'rif berilganda – yorug'lik yordamida tasvir olish degan ma'noni anglatadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson tafakkurining mahsuli bilan vujudga kelgan fotografiyaning O'rta Osiyoga kirib kelishi natijasida mamlakati-miz hududida ham tarixiy voqealarni fotosuratga muhrlash sharafiga muyassar

¹⁰ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000. – Б. 302.

bo'lishga erishildi. Bunga dastlab, Parij foto ustasi Pol Nadar 1890-yilda O'rta Osiyoga sayohat uchun kirib kelib, Orol dengizidan Pomir tog'lariga qadar manzaralarni suratga olgan. Keyinchalik Xudoybergan Devonov faoliyati yuksak hurmatga sazovor hisoblanadi.

Birinchi o'zbek fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonov faoliyati. Xudoybergan Devonov 1878-yilda Xorazmda tavallud topgan. Bolaligidan bilimga chanqoqligi va ijodiy iste'dodi bilan ajralib turgan. U arab, fors va rus tillarini o'rgangan. Qiziquvchan o'smir nemis tilini o'rgana boshlagan va bu kelgusida uning taqdirini belgilab bergan. Gap shundaki, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1864–1910-yy.) davrida me'morchilik, naqqoshlik kabi san'at turlarini ham rivojlantirgan. Bu davrda fotografiya va kino san'ati ham vujudga kelgan¹¹.

XIX asr oxirida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II nemis-mennonitlarining bir necha oilasiga o'lkada yashashiga ruxsat bergan. Ularning eng yoshi ulug'i Vilgelm Penner fotoapparatidan foydalanganida yosh Xudoybergan qiziqib qolgan. Xudoybergan birinchi marta fotoapparatni ko'rgan va undan foydalanishga ruxsat so'ragan. Keyinchalik Vilgelm Penner shogirdining muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lib, unga fotoapparatini sovg'a qilgan. Shunday qilib, 1903-yilda Xudoybergan Devonov Xivaning minoralari va hamyurtlarini suratga ola boshlagan. Avvaliga bu diniy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchragan. Biroq, fotosuratchini har qanday yangilikka qiziqqan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'z himoyasiga olgan. U nafaqat xon, balki iste'dodli shoir va bastakor sifatida tarixda qolgan. Muhammad Rahimxon II Xudoyberganga o'zining suratini olishni buyurgan, keyin esa uni o'z devoniga ishga taklif qilgan. 1907-yilda Xudoybergan Devonov Xiva xonligining bir guruh vakillari bilan birga Sankt-Peterburgga safar qilgan. Sankt-Peterburgga tashrifidan so'ng delegatsiya rahbaridan Rossiya poytaxtida bir necha kun qolishga ruxsat so'ragan. Bu yerda 29 yoshli Xudoybergan Devonov foto sirlarini o'rganishni davom ettiribgina qolmay, kinematografiya bilan ham qiziqib qolgan. U ona

¹¹ O'sha manba... – B. 224.

yurtiga qaytib, Xorazmga teleskop, grammofon, foto va kino asboblari olib keladi. Natijada, u fotolaboratoriya tashkil etishga muvaffaq bo'lgan. Bu laboratoriya Xorazmda fotokinostudiya vazifasini o'tagan. Xudoybergan Devonov ijodi rus kino san'atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan. U "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa filmlarni ishlagan. O'z filmlarida vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Xorazm xalqi urf-odatlarini ifodalangan mingga yaqin fotosurat yaratdi. XXSR davrida maktab, internatlar ochib, unda foto-kino ishlarini olib bordi. "O'zbekiston haqiqati" ("Узбекистанская правда"), "Inqilob quyoshi" gazetalarida fotomuhbirlik qilib, Xorazm dalalarida birinchi traktorning paydo bo'lishi, dehqonlarga yer taqsimlanishi va ommaviy yig'lishlarga oid ko'plab fotosurat va kinolavhalarni yaratdi.

Xudoybergan Devonov olgan suratlarda ko'proq Xiva xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy madaniyatini ko'rsatib berishga qaratilgan. Bu materiallar mamlakat tarixini yoritishdagi dastlabki kino va foto hujjatlar hisoblanadi. Audiovizual manabalardan kino materiallari ham o'ziga xos o'rin tutadi. Kino san'atining paydo bo'lishi va bevosita rivojlanishi uchun an'anaviy san'atlar – adabiyot, musiqa, tasviriy san'at hamda teatrlar zamin bo'lib xizmat qilgan.

1925-yilda O'zbek kinostudiyasi tashkil etilgach, Xudoybergan Devonovga Xorazmda kino ishlarini olib borish ishlari topshiriladi. Keyinchalik, "Sovet kino"ning muhbiri etib tayinlanadi va Moskvaga "Sho'rko'l", "Ishchi ayollar" singari syujet va lavhalarini yuborib turadi. Xudoybergan Devonov suratga olgan kinolentalarning asosiy qismlari haligacha topilgani yo'q. Urganch shahridagi kinoteatr, Xiva shahridagi Xudoybergan Devonov yashagan ko'cha uning nomi bilan yuritiladi¹². Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy Davlat Arxivining fondida birinchi o'zbek kinooperatori va fotografi Xudoybergan Devonov tomonidan olingan ilk kino va

¹² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 230.

fotosuratlar saqlanmoqda. Xudoybergan Devonov tomonidan olingan ilk kadrlar ya'ni "Devonov" va "Qafasdagi qaldirg'och" nomli hujjatli filmlar arxivning nodir materiallaridan hisoblanadi. Bu hujjatli filmlar O'zbekiston Respublikasining Kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda.

Kino – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "kino"- harakat qilaman degan ma'noni bildiradi. Kinoni dastlab olimlar tomonidan harakatlanuvchi fotografiya deb ham nomlashgan¹³.

Dunyo tarixidagi dastlabki kino Parijda ommaga namoyish qilingan. 1895-yil 28-dekabrda Parijda aka-uka Ogyust va Lui Lyumerlar birinchi marta qisqa metrajli filmni ommaga namoyish qiladilar. Shu kuni birinchi kinoseansda bo'lganlar hayratda qolib, ko'zlariga ishonmaydilar. Hattoki, namoyish etilayotgan kadrlarning qurilmasini, qurilmadan tasvir tushayotgan devordagi, ya'ni oq chodirni ushlab ham ko'radilar. Qayd etish joizki, 1895-yilda Ogyust va Lui Lyumerlar o'zlari ixtiro qilgan "Kinematografiya" uskunasi patent oladilar. Shuningdek, aka-ukalar Ogyust va Lui Lyumerlar dastlabki harakatli kinorolikni asosan, eng yaqin do'stlaridan iborat sanoqli odamlargagina namoyish qilishadi. Bu qisqa metrajli filmlarda "Ishchilaning Lyumer zavodidan chiqishi" tasvirlangan qisqa tasmani namoyish qilishadi. 1895-yil 28-dekabr kuni har yilda dunyoda Xalqaro kino kunini nishonlanishiga sabab bo'ldi. Shu namoyish etilgan dastlabki kinokadr Parijdagi kafeda "La siota vokzaliga poyezdni kirib kelishi" deb nomlanadi. Bu qisqa metrajli film namoyishi uchun, kinematografiya tarixida birinchi bor haq olingan. O'shanda ekrandan o'zlari tomon yaqinlashib kelayotgan poyezdni ko'rgan tomoshabinlar o'rinlaridan turib qochishga urinishgan. Chunki, "hozir poyezd meni bosib ketadi" deb o'ylashgan. Dastlabki filmlar ikki-uch daqiqadan ko'pga cho'zilgan emas, chunki ularning mazmuni esa eng oddiy voqealarni: chunonchi, poyezdning kelishi va ketishi, velosipedning harakatlanishi va boshqalar hisoblanar edi. Shu tariqa dunyo tarixidagi ilk kinoni rivolanishi va paydo

¹³ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 593.

bo'lishiga bu voqea asosiy zamin xizmat qildi. Shu kashfiyot tufayli harakatli tasvirlar vujudga keldi. Lekin, dastlabki kinofilmlar ovozsiz hisoblangan va shu nomda atalgan¹⁴.

Ovozsiz kino - kinematografiyaning dastlabki rivojlanish davridagi nomi hisoblanadi. Ovozsiz kino davrida filmning tuzilish xususiyatlari, o'ziga xos estetik jihatlari belgilanadi. Badiiy film mazmuni va voqelarning rivojlanib borish holati so'zsiz faqat tasvir yordamida ochib berilardi. Dastlabki ovozsiz kino rivojlanish davridagi o'ziga xosligi shundaki, uning aktyor ijrosi bilan bog'liq, ifoda vositalari bo'lib, kadr tagida voqeani tushuntirib beruvchi yozuvlar yozib borilgan. Asosan, ifoda vositalari XX asrning 20-yillarida kino san'ati asoslari (kinematografik rejalar, suratga olish rakurslari, montajning almashinib turishi, yaxlit asar yaratish, unga loyiq talqin topish va boshqalar)ga suyangan holda ishlab chiqildi. Birinchi ovozsiz filmlar Fransuz aka-uka Ogyust va Lui Lyumerlar (hujjatli) va J. Melyes (fantastik ertak) jahon kinosining bosh yo'nalishini belgilab berdi. Ovozsiz kinoni fransuz "avangard"lari, nemis ekspressionizm vakillari, shuningdek, D. Griffit, Ch. Chaplin, R. Flarerti kabi amerika kinorejissyorlari olib bordilar. A. Nilsen, M. Linder, Ch. Chaplin, M. Pikford va boshqalar ovozsiz kinoni yetakchi aktyorlaridan bo'ldi.

O'zbekistonda dastlabki ovozsiz kino davri 1925–1935-yillarni o'z ichiga oladi. Ularga "Soyabon arava", "Ravot qashqirlari", "Ikkinchi xotin", "Yuksalish" va boshqalar dastlabki ovozsiz filmlardir. S. Xo'jayev, E. Hamroyev, N. G'aniyev, K. Yormatov, R. Pirmuhammedov, Y. A'zamov, Z. Shokirova, M. Jafarova kabi san'atkorlar ovozsiz kino davrida milliy kinoning shakllanishiga olib keldi¹⁵. XX asrda fan-texnika sohasida qilingan kashfiyotlar natijasida kinematografiya sohasida yangi bosqich davri boshlandi. Ya'ni ovozli kinofilmlarning yaratilishiga sabab bo'ldi.

¹⁴ Герасимов С. Кино санъати хакида. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962. – Б. 24.

¹⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, – Б. 446.

Ovozli kino – tasvirni ko’rsatish bilan birga, kinolentaning ovoz yo’lida yozib olingan nutq, musiqa, shovqin va boshqa tovushlar bilan hamohang olib boriladigan kinematografiyaning bir turi hisoblanadi. Kinematografiyaning dastlabki davridanoq tasvirni ovoz bilan ko’rsatishlar bo’lgan. Jumladan, musiqa jo’rligidan foydalanilgan, film ishtirokchilarning ovozi, qo’shiqlari va shu kinoni tasvirga binoan ijro etuvchi aktyorlar jalb etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida filmlar ovoz bilan sinxron ravishda qayd etilishiga imkon beruvchi qurilma yaratishga harakat qilingan. Buning uchun Tomas Edison kinetofoni (AQSh, 1899-yil), D. Gomon xronefoni (Fransiya, 1901-yil), grammofon plastinkalaridan foydalanilgan. Ammo, sinxronlikka tasvir va ovoz yozish uslubini kinolentada birga qo’shib yozish va uni takomillashtirish natijasidagina erishildi. Ovozli kino tizimi XX yillarida 20-yillarida AQSh, Rossiya va Germaniyada rivojlanib bordi. O’zbekistonda dastlabki ovozli kino davri 1937-yilda rejissyor A. Usoltsevning “Qasam” filmi hisoblanadi¹⁶.

Fotografiyaga jon kirib, harakatga kelishining o’zi bunday filmlarning tomashabinlarga ta’sir qilishi uchun kifoya edi. Faqat o’sha davrning eng zakovatli kishilarigina kinemotografning kashfiyotini tushuna olar edilar. XX asrning o’ninchi yillaridayoq yarim soatga va bundan ham ko’pga cho’ziladigan filmlar paydo bo’ldi¹⁷. Shu davrdan boshlab, kinematografiya ovozsiz filmdan ovozligacha, oq-qora tasvirdan rangligacha bo’lgan ulkan yo’lni bosib o’tadi. Kinematografiya rivojlanib boshqa mamlakatlarga ham yoyildab rivojlana boshladi.

Kinotasmaga muhrlaydigan quyidagi apparatlarni ta’kidlab o’tishiz ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bularga video, videoyozuv, videomagnitofon va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Video - lotincha so’zdan olingan bo’lib. “video” — qarayman, ko’ryapman) — qo’shma so’zlar tarkibiy qismi bo’lib, o’zi qo’shilib kelgan so’zlarga tasvir eltuvchi (videosignallar), elektr signallariga aloqadorlik ma’nosi ifodasini beradi.

¹⁶ O’sha manba.... – B. 446.

¹⁷ Герасимов С. Кино санъати ҳақида. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962. – Б. 4.

Shuningdek, tasvir uzatish tizimi (videotelefon) da foydalaniladigan sistema va qurilmalarga ham aloqadorlikni anglatadi. Bularga videomagnitofon, videotelefonlarni kiritish mumkin¹⁸.

Videoyozuv — televizion, radiolokatsion va boshqa tasvir hamda tovush signallarini magnit lentaga, diskka (magnit yozuv) yoki kinolentaga (fotografik yozuv) yozib olish va qayta ko'rsatish hamda eshittirish jarayoni hisoblanadi. Teleko'rsatuvlar, videofilmlar, hujjatli va badiiy dasturlarni saqlab qo'yish va zarur paytlarda tovushli qilib qayta ko'rsatishga imkon beradi. Videoyozuvdan o'quv maqsadlarida ham keng foydalaniladi. Videoyozuvni videomagnitofon orqali amalga oshirishning signallarni kinolentaga yozib olishdan ancha afzalligi bor, chunki unda plyonkaga ishlov berish, bosib chiqarish va montaj qilishdek murakkab jarayonlarga ehtiyoj bo'lmaydi. Videomagnitofonda dasturni to'liq, qisman, u yer, bu yeridan ko'rsataverish mumkin. Bir lentaning o'ziga bir necha marta qayta Videoyozuvni amalga oshirish mumkin. Hujjatli teledasturlar (reportaj, intervyu, suhbat va boshqalar) ni tayyorlashda videoyozuv tomoshabinda "o'zi ham ishtirok etish" taassuroтини hosil qiladi. Videoyozuv yordamida "zamon va makon" muammosi ijobiy hal etiladi, chunki u vaqt ham "tanlamaydi", joyni ham "pisand qilmaydi", ya'ni videoyozuvni hamma vaqt, hamma yerda qo'llash mumkin¹⁹.

Videomagnitofon (video va magnitofon) – tasvir va tovushlarning yuqori sifatli elektr signallarini magnit lenta (disk)ga yozib olib, uni qayta ko'rsatish va eshittirishga imkon beradigan apparatdir. Birinchi videomagnitofon 1950-yillar oxirida AQShda keyinroq esa boshqa mamlakatlarda yaratildi. Magnit lentali videomagnitofonning asosiy qismi aylanuvchi videokanallarni sozlaydigan tyuner va lenta tortuvchi mexanizm, signallarni yozib olish, qayta eshittirish kanallari, lenta o'rashni va videokallakning aylanish chastotasini rostlovchi tizimlardan, boshqarish blokidan iborat. Videomagnitofon ishlatilishiga ko'ra ro'zg'orda ishlatiladigan, professional va maxsus xillarga, bir joyga o'rnatiladigan va bir joydan

¹⁸ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001. – Б. 446.

¹⁹ О'sha manba.... – Б. 446.

ikkinchi joyga olib boriladigan xillarga, rangli va oq-qora tasvirda ko'rsatadigan xillarga bo'linadi. Yozib olish vaqtida tasvir va tovushlarning elektromagnit signallari televizion priyomnikdan (yoki boshqa qurilmalardan) videomagnitofonga keladi va magnit lentaga (diskka) yozib olinadi.

Qayta ko'rsatishda magnit lenta (disk)dan tasvir va tovushlarning elektromagnit signallari televizion priyomnikka (qabul qilgichga) keladi va teleekranda tasvir (tovush bilan birgalikda) hosil bo'ladi. Videomagnitofonda kadrni vaqtincha to'xtatib turadigan qurilmasi bor. Videomagnitofonda rang beruvchi signallarga ishlov berishning 3 ta tizimi (sistemi) bor: bularga SECAM, PAL va NTSSlarni kiritishimiz mumkin. Bir tizimdan boshqasiga o'tkazish uchun ularning mikrosxemalari o'zgartiriladi yoki televizorga o'rnatilgan dekoder yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy videomagnitofonlarga rangli tasvirlarni va tovushni raqamli yozib olish va qayta ko'rsatish tadbiriq etilgan. Bu bilan tasvir va tovush sifati bir mecha martaga yaxshilandi va videomagnitofonning o'zi ixchamlashtirildi. Videomagnitofon televideniya, ilmiy-texnikada, tibbiyotda, sportda, o'quv mashg'ulotlari va boshqalarda qo'llaniladi.²⁰

Ovoz yozish qurilmalari dastlab XX asr boshlarida amalga oshirildi. Keyinchalik ovozlarni yozib olib ularni saqlashga erishiladi. Ovoz yozib oluvchi qurilmalardan grammafona plastinkasi ixtiro qilinadi. Grammafona plastinkasi – tovush (nutq, musiqa, ashula) yozib olingan disk hisoblanadi. Plastmassa, sellulyuza, asetilsellyulozadan yasalanadi. Tovush diskning ikki tomoniga mexanik usulda spiral ariqcha tarzida yozib olinadi. Ariqchalarda yozib olingan tovush tebranishlariga mos izlar qoladi. Grammofona plastinkasini grammonga qayta qo'yib eshittiriladi. Keyinchalik ko'plab sonli gramplastinkalar ishlab chiqarila boshlandi va mashhur qo'shiqchilarning qo'shiqlari yanada ommalashuviga imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga yozib olingan ovozlarni saqlash, tarixga muhrlash ishlari ham amalga oshirildi. Shu maqsadlarda ko'plab ovoz yozuvchi firmalar paydo bo'lib,

²⁰ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2001. – Б. 446.

ishlab chiqilgan standartlar asosida plastinkalarning daqiqasiga 78 aylanish tezligi belgilab qo'yildi. Bu uch daqiqalik qo'shiq yozishni ta'minlaydi. Ammo, muhandislarning harakatlari bilan patefon diapazoni chastotasi — 150 dan 4000 Gts.gachani tashkil etdi. Shunday gramplastinkalar O'zbekistonda ham ishlab chiqarilgan.

Jumladan, Toshkent shahrida Muhammadjon Toshmuhamedov nomidagi gramplastinkalar ishlab chiqaruvchi korxona mahsulotlarini katta yoshdagi qo'shiq ixlosmandlari yaxshi eslaydilar. Shu tariqa, faqatgina lampali kuchaytirgichlar, pyezokristallik qurilmalar va plastinkalardan ovoz chiqaruvchi elektr qurilmalari paydo bo'lishi oqibatida musiqa yozilgan plastinkalar bozori avj olib ketdi. Plastinkalar ham shunga muvofiq o'zgarib bordi. Ularni vinildan ishlab chiqara boshladilar. Daqiqasiga 33 aylanishdek, aylanish tezligining kamayishi va yozuvlarning takomillashtirishi evaziga, plastinkalar ikki tomonidagi taronalar uzunligi 40 daqiqagacha yetdi. Yillar o'tib, ovozni stereofonik yozuvlar orqali ifodalash imkoniyati yuzaga keldi. Ovoz yozish qurilmalari qatorida magnit yozuvlari ham alohida o'rin tutadi. Bu haqida dastlabki fikrlar amerikalik muhandis olim Oberlin Smit (1840–1926-yy.) tomonidan e'lon qilingan bo'lib, u olimlar e'tiborini magnitli material yozilgan ovozli to'lqinlarda axborotni ham saqlash xususiyatlariga qaratdi. Agar axborot elektromagnit to'lqinlarida yozilgan bo'lsa, uni o'qish mumkinligini tavsiflab berdi. Muallif faqat nazariy fikrlar beribgina cheklangan va bunday qurilma loyihasiga taalluqli fikrlarni bayon etmagan. Texnika taraqqiyoti natijasida magnit yozuvlarini ham amalga oshirish hamda ularda ovozli yozuvlarda uzoq muddatlarda saqlash imkoniyati vujudga keldi. Shu tariqa, kompakt-kassetalardan foydalanila boshlandi hamda kompakt-disklar va raqamli texnologiyalar yaratilmaguniga qadar deyarli yigirma yillar foydalanishda davom etdi. Kopengagen telefon stansiyasi laboranti Valdemar Paulsen (1869–1942-yy.) Smit nazariyasi bo'yicha "telegrafon" modeliga patent oldi. Ovozni yozib olib, tinglovchiga yetkazuvchi mazkur elektromagnit qurilmasining aylanish tezligi ham oshirilgandi. Magnit yozuvidagi ovozni eshittirishda signal telefon membranasiga tushardi.

Yozuvlar kuchli doimiy magnit yordamida o'chirilardi. Qurilmaning ovoz balandligi kuchli emasdi, chastotasi ham: 150–2500 Gts.ni tashkil etardi. XX asr 30–50-yillar patefonlari 1900-yilda Parijda o'tkazilgan jahon ko'rgazmasida telegrafon Granpri olishga sazovor bo'ldi. Bir yildan keyin u “haqiqiy” magnitofonga o'xshash yangi qurilmani yaratdi. Yozuvlar kengligi 3 mm, qalinligi 0,5 mm bo'lgan lentalariga yozilardi. Lentalar bir yozilgan g'altakdan ikkinchisi o'qiydigan g'altakka o'tib o'rala boshlardi. Yozuvlarni naushniklar orqali tinglash mumkin edi. Gulelmo Markoni (1874–1937-yy.) ham shu sohada ilmiy izlanish olib bordi. Uning magnit yozuvchi qurilmasining og'irligi bir tonnaga yaqin edi, lentali g'altaklari diametri esa 60 sm edi. Agar uzilib ketgudek bo'lsa, elektr payvandlagich bilan ulanardi. Xalqaro kongresslarda ma'ruzalarni magnitofonga yozish uchun ikki yarim tonnaga yaqin og'irlikdagi yuzlab kilometr lentalar zarur bo'lardi. Uzog'i bilan o'n to'rt soatlik yozuvlarni amalga oshirish imkoni mavjud edi. Keyingi ovoz yozib oluvchi va qayta eshittiruvchi qurilma bu magnitofon hisoblanadi. Magnitofon – magnit va fon –tovush (nutq, musiqa) ni magnit lentaga yozib olish va qayta eshittirish ucin mo'ljallangan apparat. Magnitofonning kasb bilan bog'liq (professional), dispetcherlik, maishiy, maxsus, statsionar va portativ (ixcham) turlari mavjud. Magnitofonlarga 1940-yil oxiriga qadar deyarli talab mavjud emasdi, shunga qaramay, muhandislar bu sohadagi takomillashtirish ishlari olib bordilar. Mazkur qurilma ustida uzoq yillar ishlab, lentalar ferromagnit qatlam bilan qoplangan plastmassalilari bilan almashtirildi. 1935-yilga kelib, Germaniyaning AEG firmasi konstruktiv tuzilmali va elektrik sxemali magnitofonlarni ishlab chiqara boshladi. Mazkur magnitofonlar g'altaklari lentasining diametri 30 sm bo'lib, yigirma daqiqalik musiqaninglash imkonini berar va chastotasining diapazoni 100 dan 6000 Gts.gachani tashkil etardi. Vinil plastinkalar, gramplastinkalar, magnitofonlar jahonda 1947-yildan keyin boshlab ommalasha boshladi. Sobiq ittifoqda dastlabki maishiy magnitofon “Dnepr” nomi bilan ommaga taqdim etildi. Bu davrda magnitofon qimmatbaho buyum hisoblanardi. Bundan tashqari, uni juda kam sonda ishlab chiqarganlar. Keng ommalashuvi XX asrning 60-

yillariga to'g'ri keladi. XX asrning 60–90 yillarida ko'pchilik mazkur qurilmaga ega bo'ldi. Biroq, XX asr oxiriga kelib, ularni egallab turgan o'rnidan kompakt-disklar siqib chiqara boshladi. Kassetali qurilmalar va pleyerlar ishlab chiqarila boshladi. Raqamli texnologiyalar davri boshlandi. Shu bilan barchaga xohlagan vaqti va joylashgan joyidan qat'iy nazar, ovozli ko'chma qurilmalardan keng foydalanish imkoniyati taqdim etildi. Bugungi kunda yuqoridagi qurilmalar o'rniga ovozni raqamli shaklda saqlash va xohlagan joyga olib borish mumkin bo'lgan xotira chiplaridan foydalanadilar. Jamiyat taraqqiyotining globallashuvi jarayonida yuqorida tavsiflangan axborot tashuvchi qurilmalar asta-sekin o'rnini keyingisiga bo'shatib berish holati sodir bo'la boshladi. Gamplastinkalar, qurilmalar bugungi kunda mamlakatimizdagi “Aloqa tarixi muzeyida” saqlanmoqda²¹.

1.2. Audiovizual materiallar saqlovchi arxivlar va ularning faoliyati

Audiovizual arxivlar - maxsus ixtisoslashtirilgan, har xil turdagi audiovizual hujjatlarni saqlash, hisobga olish, jamlash, foydalanishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi muassasa hisoblanadi. Audiovizual hujjatlarni kelib chiqishi, ko'rinishiga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin: kino, foto va ovozli hujjatlar turlari kiradi²². Shuningdek, audiovizual materiallar saqlovchi arxivlar ya'ni kino, foto va ovozli hujjatlar saqlovchi arxivlar faoliyati, ularda saqlanayotgan hujjatlarni o'rganish tarixni yoritishda muhim rol o'naydi. Chunki, bu muassasalarda saqlanayotgan materiallarda har bir mamlakatning muhim tarix zarvaraqlariga muhrlangan audiovizual hujjatlar saqlanadi.

Dunyo tarixidagi dastlabki audiovizual arxiv 1899-yilda Avstriyaning Vena shahridagi Ossterechische Akademik der Vissenschaften tomonidan ovozli yozuv arxivi tashkil qilindi. Bu arxivga dastlab etnografiyaga oid ovozli yozuvlarni yig'ish asosiy vazifa qilib belgilanadi. Demak, muassasa dunyodagi dastlabki rasmiy ovozli hujjatlarni saqlovchi arxiv hisoblanadi. Bu arxiv hozirgi kungacha

²¹ <http://uz.infocom.uz/2014/11/04/dastlabki-ovoz-yozib-oluvchi-va-uzatuvchi-qurilmalar>.

²² https://ru.wikipedia.org/wiki/Аудиовизуальные_архивы

faoliyat yuritib kelmoqda. Shu vaqtda Londonning Britaniya muzeyida harakatli fotosuratlar kolleksiyasini tashkil qilish sinovdan o'tkaziladi va bu dastlabki audiovizual arxiv ko'rinishlaridan dalolat berar edi. Vashingtondagi Kongress kutubxonasida birinchi kinoplyonkalar muhrlangan qog'ozlarni saqlash va ro'yxatga olish muammosi yuzaga keladi. Keyinchalik, ularni ro'yxatga olib ularga mualliflik huquqi beriladi. Kinoarxivlar an'anaviy arxivlardan farq qilmaydigan muassasa sifatida ya'ni ma'lumotlarni va manbalarni yig'ish asosida maxsus tashkilot sifatida paydo bo'lishi Yevropa va Shimoliy Amerikada 1930-yillarda alohida va har xil turdagi audiovizual hujjatlar saqlovchi arxivlar paydo bo'la boshlaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin keskin tarzda butun dunyo bo'ylab audiovizual materiallar saqlovchi arxivlar tashkil etila boshlandi²³.

Ayniqsa, XX asrning 20-yillarida radio taraqqiyoti natijasidagi ovozli hujjatlar, yangi texnologiyalar rivojlanishi natijasida esa yangi harakatli fotosuratlar ya'ni kinofilmlar paydo bo'ldi. Televideniye rivojlanishi natijasida esa harakatlanuvchi fotosuratlar, ya'ni videolar turidagi arxiv materiallari vujudga kela boshlaydi. Bundan tashqari, jamiyat tarixiga oid fotosuratlar jamlammasi ya'ni fotoalbomlarni, kinomerosni avloddan-avlodga yetkazish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Keyinchalik ovoz yozib olish formatining o'zgarishi ya'ni nitroselectyozadan triatselectyozali plyonkalarga almashtirilishi hujjatlarni yaxshi saqlanishi ta'minlashni amalga oshirdi. Natijada hujjatlarni saqlovini ta'minlash ishlarini osonlashtirildi. Audiovizual materiallarni arxivlashtirish ya'ni arxivda saqlovini ta'minlash tarixi hozirgi kungacha to'la o'rganilmagan. Audiovizual merosni saqlash qoidalari Shimoliy Amerika va Yevropada boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yaxshi tashkil qilingan²⁴.

Yevropadagi audiovizual hujjatlar saqlovchi eng yirik arxivlardan biri Berlin ovozli hujjatlar arxividir. Bu arxiv Germaniyada joylashgan. Berlin ovozli hujjatlar arxivi dunyo bo'ylab an'anaviy musiqa yozuvlar saqlovchi arxiv hisoblanadi.

²³ Эдмондсон Р. Аудиоизуальное архивирование: философия и принципы. – Париж: ЮНЕСКО, 2004. – С. 31.

²⁴ Эдмондсон Р. Аудиоизуальное архивирование..... – С. 32–33.

Berlin ovozli hujjatlar arxivi Berlin Etnologiya muzeyining bir qismidir. Ovozli hujjatlar 1900-yildan beri arxivga to'planadi. Berlin ovozli hujjatlar arxivida 2000-yilda arxiv saqlov xonasida qariyb 150000 saqlov birligidagi ovozli hujjatlar saqlanayotganligi ma'lum bo'lgan. Arxivdagi hujjatlarning bir qismi–mumdan yasalgan valiklarga yozilgan ovozli hujjatlar hisoblanadi. Bu hujjatlar, asosan, 1893-1952-yillarda yozilgan. Arxiv 1999-yilda YUNESKO ro'yxatdan o'tkazilib, "Jahon xotirasi" manbalari qatoriga kiritildi. "Kham Hom" yoki "Shirin so'zlar" nomli ovozli yozuvlar arxivning dastlabki kolleksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu ovozli yozuvni 1900-yil 24-sentabrda Shturmf tomonidan yozib olingan. Arxiv tarixi 1900-yilga borib taqaladi. Berlinga gastrol safariga kelgan Siam teatri qo'shiqchilarini musiqalarini va qo'shiqlarini psixolog Karl Shturmf va vrach Otto Abraham fonografga yozib olishadi. Ayni vaqtda Karl Shturmf Fridrix Vil'gem nomidagi psixologiya instituti lavozimida faoliyat yuritgan. Shuning uchun dastlabki arxiv hujjatlarini kolleksiyalarini yig'ishga muvaffaq bo'ladi va bu kolleksiyalar institutga qarashli shahar saroyida saqlay boshlanadi. Arxiv 1904-yilda rasman institutning tarkibida tashkil qilinadi. Arxivning birinchi direktori Karl Shturmfning talabasi va hamkasbi E. M. fon Xornbostel etib tayinlanadi. E. M. fon Xornbostel 1905-1933-yillarda arxivni boshqarish bilan shug'ullanadi. U bu vaqt davomida arxiv uchun g'oyat katta ishlarni amalga oshirdi. Arxivga yangi hujjatlar faol tarzda qabul qilinib, jamlash ishlari amalga oshiriladi. Ayniqsa, Etnografiya Muzeyi, fol'klor olimlarning ekspeditsiya orqali olingan ovozli yozuvlari arxivga olib kelingan. Bundan tashqari, ular bilan keng ko'lamdagi hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Arxiv xodimlari tomonidan chet mamlakatlarning kolleksiyalari va fono hujjatli arxivlari bilan ovozli yozuvlarini mumli valikdan nusxa ko'chirish, ularning mazmunini o'qish va qabul qilingan hujjatlarni e'lon qilish ishlari amalga oshirildi. Ovozli yozuvlarning transkripsiyasi, musiqashunoslarning ishlariga, musiqa psixologiyasiga (E. M. fon Xornbostel, Karl Shturmf, Kurta Zaksa) oid mavzularda nashr ishlari amalga oshirildi. Berlin ovozli hujjatlar arxivi uchun, musiqa sohasida yangi davrni boshlab berdi. Birinchi

jahon urushi davrida arxiv harbiy lagerlarda asirlarni ovozlarini yozib olish orqali qatnashdi. Karl Shturmfnings pensiyaga chiqishiga qadar, ya'ni 1922-yilgacha arxiv Psixologiya instituti tarkibida bo'lgan. Karl Shturmf pensiyaga chiqqandan so'ng arxiv Berlin oliy maktabi tarkibiga kiritilgan. 1933-yilda natsislar hokimyatni egallashi natijasida Xornbostel ishdan ketadi. Bunga sabab Xornbostelning kelib chiqishi asli yaxudiy bo'lganligi uchun o'z vazifasidan ozod etiladi va Germaniyadan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Xornbostelning talabasi va assisenti Marius Shnayer arxiv direktori etib tayinlandi va arxiv muzey Berlin-Dalemega o'kaziladi. 1944-yil arxivning bir qismi Berlindagi silezskiy konlariga evakuatsiya qilinadi. Sovet armiyasi Germaniyaga yetib kelgandan keyin u yerdan boshqa o'ljalar kabi SSSR ga jo'natib yuboriladi. Qolgan hujjatlar Berlin xalq muzeyida qolgan va Germaniya bo'linishidan keyin bu hududlar G'arbiy Germaniyaga tegishli bo'lgan.

SSSR hududiga o'lja sifatida olib kelingan hujjatlar 1948-yilda SSSR Fanlar Akademiyasi tomonidan Etnografiya institutiga qabul qilindi. 1949-yilda fol'klor-musiqashunos E. B. Gippuasa boshchiligida maxsus komissiya tomonidan arxiv qutilardagi valiklarni ochib o'rganishga kirishiladi. Arxivda jami ovozli hujjatlar 14478 ta valiklarda, misli matritsa va ipak plastinkalarga yozib olingan ovozli hujjatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, zarar yetganlari 47 ta valik va 241 ta plastinka ham bor edi. 1958-yilda arxivni qayerda saqlashni hal qilinmagan. Masalan, Etnografiya institutida, Jahon adabiyoti institutida, Pushkin uyida va boshqa muassasalarda saqlash ishlari amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Leningradda arxiv hujjatlarini saqlashga va o'rganishga imkon yo'q edi. Shu bilan birga Berlinda qolgan arxiv ma'lumotlarining bir qismi va arxiv ma'lumotnomalarini olib kelib bu hujjatlarni mazmunini o'qib o'rganishga harakatlarni amalga oshirishadi. Keyinchalik SSSR Fanlar Akademiyasining 1958-yil 17-iyundagi Qaroriga muvofiq, Akademiya fondidagi ovozli hujjatlarning Germaniyaga tegishli ovozli yozuvlarni GDRga jo'natish to'g'risidagi qarori tasdiqlandi. Valiklardan nusxa ko'chirish ishlari boshlandi va 1958-yil noyabr oyida Germaniyaga jo'natildi. Arxivda shu-

ningdek, Yuliya Blokida 176 ta valikda rus xalqining madaniyatiga oid nodir ovozli hujjatlar (XIX asr oxirida XX asr boshlariga oid) yig'ilgan va bu hujjatlarni Pushkin uyi binosida olib qolishga qaror qabul qilinadi. 1959-yilda arxiv hujjatlari Sharqiy Berlin Fanlar akademiyasiga keltiriladi. 1966-yildan 1970-yilgacha 4000 dan ortiq valiklarni G'arbiy Berlin devori orqali ovozli hujjatlar nusxalari qaytarilib olib kelingan. Sharqiy Berlin Xalq muzeyiga yangi direktori Kurd Reyxard tayinlanadi. U arxivni qayta tiklashga harakatlar olib boradi. Natijada muzeylarga, kolleksionerlarga murojaat qilib, arxivni bir qismini qayta tiklashga erishadi. 1952-yilda arxiv rasmiy tarzda muzeyning bir bo'limi sifatida ochiladi. 1991-yilda tarixiy kolleksiyalar va qayta tashkil qilingan arxiv birlashadi. 1998-yil arxivda fonovalikdagi hujjatlarni audio kassetaga ko'chirish ishlari amalga oshirildi. 2004-yilda 350 ta hujjatlardan 188 tasi ko'chirish ishlariga amalga oshirilgan. 2012-yilda arxivning bir qismi bo'lgan Yuliya Bloki arxivi topiladi. 2012-yil holatiga ko'ra, arxiv Berlin Etnologiya muzeyining musiqa bo'limi tarkibida faoliyat yuritib kelmogda²⁵.

Shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu arxivdagi hujjatlardan foydalanish uchun har qanday tadqiqotchi, o'rganishni istagan shaxs va yoki bo'lmasa shunchaki tarixga qiziqqanlar arxivning elektron saytiga buyurtma asosida hujjatlardan foydalanish so'rovini yuborishlari mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, arxivdan foydalanuvchilarga ham iqtisodiy va ham vaqtdan unumli foydalanishga erishiladi.

Ukraina kino, foto, fono Markaziy davlat arxivi. Ukraina kino, foto, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi – audiovizual hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan maxsus ixtisoslashgan arxivdir. Shu bilan bir qatorda Ukrainadagi eng yirik arxivlardan biri hisoblanadi. Ushbu arxiv Kiyev shahrida joylashgan bo'lib, Ukraina kino, foto, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi sifatida 1932-yilda tashkil etilgan. II jahon urushidan oldin, Ukraina arxivi avval Kiyev Pecherskoy Lavridagi fotosuratlar laboratoriyasining arxiv saqlovxo-

²⁵ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Берлинский_фонограмархив](https://ru.wikipedia.org/wiki/Берлинский_фонограмархив)

nasida joylashgan va faoliyat olib borgan. Keyinchalik ushbu arxiv qisqa vaqt ichida audiovizual manbalarni majmuini to'plashga, saqlashga muvaffaq bo'lgan. Audiovizual manbalarning asosiy qismi Ukrainaning tarixi tasvirlangan fotosuratlar, hujjatli filmlar va ovozli hujjatlar tashkil etadi. Ikkinchi jahon urushi davrida Ukrainadagi arxivlar faoliyatiga va anchagina hujjatlarga ziyon yetdi. Barcha hujjatlar kompleks tarzda 1942-yilda Kiyev shtab rahbari A. Rozenberg qaroriga binoan, Kiyevda qoldiriladi. Kiyev shahri ozodlikka erishgunga qadar, ya'ni 1943-yilda Sovet armiyasi tomonidan arxiv hujjatlari saqlab qolingan. Kiyevda natsistlar urushi davrida ko'plab hujjatlar yo'q bo'lib ketgan. Shuningdek, harbiy harakatlar davomida ko'plab hujjatlar yo'qolib ketganligi ham ma'lum bo'lgan. Bu vaziyatdan keyin, 1943-yilda dekabr oyida Ukraina SSR markaziy davlat arxivi sifatida qayta tashkil qilingan. Ukraina SSR markaziy davlat arxivining direktori sifatida faoliyat olib borgan, G. S. Pishenichnogo direktor etib tayinlanadi. Shundan so'ng arxivchilarning oldidagi birinchi navbatdagi vazifasi Ukraina davlatining tarixiga oid hujjatlar fondini qayta tashkil qilish asosiy vazifa qilib olingan edi. Arxivda audiovizual materiallarni doimiy saqlash uchun to'plash, jamlash, hisobga olish ishlarini amalga oshirish zarur edi. Bundan tashqari, arxiv hujjatlaridan foydalanishni tashkil etish ishlarini yaxshilab, sharoit yaratish kerak edi. Ukraina SSR markaziy davlat arxiviga yig'iladigan hujjatlar quyidagi muassasalardan olib kelish kerak edi. Bu muassasalardan asosiylari muzeylardan Ukraina tarixiga oid tarixiy kinoxronika va qadimgi nodir fotosuratlarini, Kiyevdagi kinoteatrda opera yozuvlarini arxivga olib kelingan va ularni saqlovini ta'minlash ishlari olib borilgan. Arxivdagi muhim hujjatlardan "Drezdan to'plami" 1946-yilda va "Vena urushi" 1942-yillarga oid audiovizual materillar qaytarib olib kelindi. Ayniqsa, natsistlar urushi vaqtidagi fotosurat va video materillar jamlandi. 1948-yilda arxiv bir qancha hujjatlarni qabul qilib oldi. Bulardan: "Sovetskaya Ukraina" ("Советская Украина") kinojurnalining materiallari, hamda Ukraina kinoxronika fabrikasining 1936–1938-yillardagi hujjatli filmlar tasmalarini qabul qildi. Ushbu hujjatli filmlardan, "Karpat durdonasi" (Жемчужина Карпат) (1940-yil), "Dunayda" (На

Дунае) (1940 yil) lar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Umum Ukraina foto, kino boshqarmasi va Ukraina Soyuzkinoxronikasining 1923–1936-yillardagi kino, fotosurat va hujjatli filmlari arxivga qabul qilina boshlandi.

Urushdan keyingi yillarda arxiv Ukraina SSR tarix Markaziy davlat arxivining bir bo'limi sifatida ish faoliyatini olib bordi. 1953-yilda arxiv Ukraina SSR kino, foto, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi sifatida qayta tashkil qilindi. Keyingi davr mobaynida arxiv ish faoliyatida ko'plab ishlarni amalga oshirib bordi. Jumladan, arxiv hujjatlarini jamlash, ularga ilmiy-ma'lumotnoma apparatlari tuzib chiqish ishlari amalga oshirildi. Arxiv faoliyatini yangi bosqichida audiovizual materiallarni saqlanishini ta'minlash, hisobga olish, jamlash va foydalanishni tashkil etishni ustuvor vazifa qilib belgilandi. Buning uchun esa arxiv uchun maxsus ixtisoslashtirilgan bino zarur edi. Natijada, 1975-yilda Smolensk shahri-ning 24-ko'chasidagi 3 etajli binoga ko'chirildi. Bu binoda qabulxona, arxiv saqlovxonasi, kino, foto hujjatlar uchun maxsus laboratoriya, ilmiy tadqiqotchilar uchun o'quv zali xonalari mavjud edi. Arxiv xodimlari arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilar uchun hujjatlarni, ma'lumotlarni tezda qidirib topib berish uchun arxiv ma'lumotnomalari, izohli lug'at, yo'l ko'rsatkichlar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi. Keyingi yillarda Ukraina davlati mustaqilligini qo'lga kiritishi tufayli arxivning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

1992-yilda arxiv Ukraina kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi nomi bilan qayta tashkil qilindi. 1998-yil arxivga yangi davrdagi audiovizual materiallar qabul qilina boshlandi. Ukraina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti natijasida arxiv xodimlari tajribasiga binoan arxivda yangi tizimda ish yuritila boshlandi. Shuningdek, arxiv yangi kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlandi. Deyarli hamma bo'limlaridan hujjatlarni tezda qidirib topish uchun ilmiy ma'lumotnoma apparati va yo'l ko'rsatkichlar tuzib chiqildi.

Bugungi kunda arxiv 13 bo'lim va sektorlardan iborat hamda arxivda 77 ta hodim faoliyat yuritib kelmoqda. Arxivda foydalanuvchilar uchun arxiv hujjatlari taqdimoti, film festivallari, ijodiy uchrashuvlar o'tkazib boriladi. Bu arxiv Ukraina

arxiv xizmatiga bo'ysinadi. Shuningdek, audiovizual hujjatlar bilan ishlash, arxiv muassasalari uchun metodik o'quv qo'llanmalar ishlab chiqaruvchi markaz hisoblanadi. Ukraina kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi Ukraina Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Arxiv xodimlari Ukraina xalqining tarixiy va madaniy merosini asrab avaylash, shuningdek, ularni saqlanishini ta'minlash va foydalanishni tashkil etish uchun o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar²⁶. Ukraina kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxividan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxlarga quyidagicha xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan: birinchi tartibda kino, foto va ovozli hujjatlardan kopiya (nusxa) berish orqali bo'lsa, ikkinchi tartibda murojaatlar elektron shaklda yuborish va qabul qilib olib, tezkor javob olish yo'li bilan boshqa davlat arxivlaridan farq qiladi.

MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi arxivlari muhim o'rin tutadi. Rossiya Federatsiyasi arxivlari hujjatli materiallarining boyligi bilan ajralib turadi. Rossiya Federatsiyasi Markaziy davlat arxivlari tizimiga quydagilar kiradi:

1. Oktabr inqilobi-davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi oliy organlari Markaziy davlat arxivi.
2. Rossiya Federatsiyasi xalq xo'jaligi Markaziy davlat arxivi.
3. Sovet armiyasi markaziy davlat arxivi.
4. Sankt-Peterburgdagi Rossiya Federatsiyasining Harbiy dengiz floti Markaziy davlat arxivi.
5. Moskvadagi Rossiya Federatsiyasining harbiy-tarix Markaziy davlat arxivi.
6. Sankt-Peterburgdagi Rossiya Federatsiyasi tarix Markaziy davlat arxivi.
7. Moskvadagi Rossiya Federatsiyasi tarix Markaziy davlat arxivi.
8. Rossiya Federatsiyasining Qadimgi hujjatlar Markaziy davlat arxivi.
9. Rossiya Federatsiyasining adabiyot va san'at Markaziy davlat arxivi.

²⁶ <http://tsdkffa.archives.gov.ua/>

10. Rossiya Federatsiyasining kino, foto, fono hujjatlari Markaziy davlat arxivi²⁷. Quyidagi arxivlardan tashqari yana bitta fono hujjatlar saqllovchi arxiv Rossiya Federatsiyasining fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi hisoblanadi²⁸.

Biz bu arxivlardan faqatgina quyidagi audiovizual arxivlar tarixi, faoliyati va ularda saqlanayotgan audiovizual hujjatlardan foydalanish usullariga to'xtalamiz.

Rossiya Federatsiyasi davlat arxivlarida hozirgi kunda 5 million saqlov birligidan ortiq audiovizual hujjatlar saqlanmoqda²⁹. Demak, Rossiya arxivlarining audiovizual materiallar saqlash uchun ixtisoslashgan arxivlari mavjud. Bulardan, Rossiya kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi va Rossiya Federatsiyasining fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi Rossiya Federatsiyasining eng yirik, ahamiyatga molik arxivlaridan hisoblanadi.

Rossiya kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi. Rossiya kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi dunyodagi eng yirik audiovizual materiallar saqllovchi arxivlardan biri hisoblanadi. Bu arxivda Rossiya tarixiga oid muhim audiovizual hujjatlar yig'ilgan. Arxivning asosiy fondlari 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra: kino hujjatlar – 250819 saqlov birligida, hujjatli filmlar – 45102 saqlov birligidagi hujjatlar, shuningdek, ulardan 2491 saqlov birligidagilar 1917-yilda suratga tushirilgan, foto hujjatlar – 1 mln. 170736 saqlov birligi hujjatlar, shuningdek 179169 saqlov birligida va ulardan 200674 saqlov birligidagi fotograf-iyalar albom holatida, videofonogrammlar – 20163 saqlov birligi, shuningdek ulardan 9179 saqlov birligidagi hujjatlar saqlovxonasida saqlanmoqda.

Rossiya kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivida audiovizual hujjatlardan foydalanishning asosiy usullari quyidagilardan iborat: doimiy ravishda saqlanayotgan hujjatlarning tarkibi va mazmuni haqida tashabbushli axborot tayyorlash, mavzuli so'rovnomalarni bajarish, hujjatlar ko'rgazmasini tashkil etish, mavzuli suratlar to'plami va surat albomlarini tayyorlash, kino, surat, ovozli

²⁷ Arslonzoda R. Arxivshunoslik: Muammoli ma'ruzalar matni. Farg'ona, 2007. – B. 18.

²⁸ <http://rgafd.ru>

²⁹ Асфадиярова И. Г. Аудиовизуальные архивы.... – С. 5.

hujjatlarni e'lon qilish, televedio va radioeshittirishlar tayyorlash, tadqiqotchilarga o'quv yoki kinozalda, eshitish xonasida ishlash uchun hujjatlarni vaqtincha foydalanishga berish va boshqa usullardan foydalaniladi³⁰.

Arxivdagi hujjatlar sobiq Sovet ittifoqining (XIX asrning 2-yarmi), Rossiya federatsiyasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va xorijiy davlatlar bilan aloqalariga oid audiovizual hujjatlar saqlanmoqda. Shuningdek, arxivda "Kino jurnallar" 1910–2005, Maxsus mitinglar 1939–1945-yillarga tegishli, Podshoh oilasining 1896–1916-yillardagi shaxsiy kinoarxivi, alohida kinoviedoxronikali syujetlar, chet-el mamlakatlarining ovozli va ovozsiz kino hujjatlari saqlanadi³¹.

Foto hujjatlar (plyoka, shisha, raqamli formatda, dageratopik)da SSSR tarixi, Rossiya Federatsiyasi va Rossiya Qurolli Kuchlar tarixini yorituvchi shuningdek, iqtisodiy, siyosiy, fan va madaniyat, ijtimoiy hayot, sog'liqni saqlash va sport sohasida erishilgan yutuqlarini aks ettiradi. Bular qatorida fotosuratlar, foto albomlar va slaydlar Rossiyaning chet-el mamlakatlari bilan aloqasini aks ettiradi. Arxivda shuningdek, kino, foto va video hujjatlarga ta'luqli bo'lgan hujjatlarida – arxiv ma'lumotnomalari, joriy davrdagi arxiv axborot hisob bazalari, nashrlar, qo'shimcha yig'ilgan arxiv fondlari, ko'rgazmalar va maxsus sug'urta qilingan hujjatlar nusxalari ham saqlanadi. Arxivda maxsus ilmiy-ma'lumotnoma axborot kutubxonasi ham mavjud.

Rossiya kino, foto hujjatlar davlat arxivi tarixi. Rossiya kino, foto hujjatlar davlat arxivi 1926-yilda tashkil qilingan. 1918-yilgacha kino va fotosuratlar mahalliy tashkilotlar tarkibida saqlangan. Sobiq sovet ittifoqining dekretiga muvofiq, 1918-1919 yillarda davlat tasarrufiga o'tkazilgan. Sovet hukumatining dastlabki yillari va inqilobgacha bo'lgan fotomateriallar, fotoalbomlar, kino va foto materiallar ishlab chiqarish davlat tasarrufiga o'tkazilishi natijasida arxivlarga e'tibor berila boshlandi. Bu yerga qabul qilingan hujjatlar asosan mahalliy shaxslardan, Lelengrad tarix arxivi, viloyat arxivlaridan, Sovet kino, Prolet kino,

³⁰ Асфадиярова И. Г. Аудиовизуальные архивы.... – С. 63

³¹ <http://rgakfd.ru/obshchaya-informaciya>

RSFSR Narkomproz va Skobelev omborlaridan saqlangan hujjatlar hisoblanadi. Keyinchalik Oktabr inqilobi arxivida kino hujjatlarini 1927-1928-yillarda maxsus binolar saqlash ishlari amalga oshirildi. 1927-yilgacha kino, foto hujjatlarni moslashtirilgan binolarda saqlash natija bermagani sababli davlat tomonida maxsus bino qurilish ishlari boshlandi. Maxsus bino qurilishi ma'lum sabablarga ko'ra vaqtincha to'xtatib qo'yildi. Keyinchalik kino, foto hujjatlarni ma'lum qismi bir qator ilmiy muassalarning va tashkilotlarni arxivlarida saqlandi. Bunday holatlarni hisobga olib, davlat tomonidan kino, foto hujjatlar uchun maxsus ixtisoslashtirilgan binolar qurilish ishlari amalga oshirila boshlandi. Natijada, bunday maxsus binolar Moskvaning Lifortov saroyida amalga oshirildi. Moslashtirilgan binolarda kino, foto hujjatlar aralishib, tartibsiz holatda saqlanar edi. Keyingi yillarda hujjatlar tartibga keltirish ishlari amalga oshirildi. 1934-yilda. SSSR kino, foto Markaziy arxivning tarkibiga Fono hujjatlar Markaziy arxivi bir bo'lim sifatida birlashtirildi. Natijada SSSR Kino, foto davlat arxivi SSSR Kino, foto, fono Markaziy davlat arxivi deb qayta nomlandi. 1953-yilda arxiv Moskvaning Krasnogorsk shahridagi maxsus ixtisoslashtirilgan binoga ko'chirildi va hozirgi kunga qadar Krasnogorsk shahrida faoliyat yuritib kelmoqda. 1967-yilda arxivning fono hujjatlar bo'limi alohida arxiv sifatida tashkil qilindi va bu arxiv SSSR Fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb nomlandi.

Arxiv 1967-yildan 1992-yilga qadar kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxiv nomi ostida faoliyat yuritib keldi. 1992-yilda Rossiya Kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb qayta nomlandi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1997-yil 2-apreldagi № 275 sonli qaroriga muvofiq, ushbu arxiv Rossiya Federatsiyasining noyob madaniy meroslar qatoriga kiritildi.³²

Rossiya Federatsiyasining fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi. Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi 1967 yilda SSSR kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi negizida bo'lim sifatida tashkil qilingan. Dastlab, 1932-

³² <http://rgakfd.ru/istoriya-arhiva>

1934-yilgacha alohida SSSR fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi sifatida faoliyat olib borgan. 1934-yildan esa SSSR kino, foto hujjatlar Markaziy davlat arxivi tarkibida alohida bo'lim sifatida tashkil qilingan. 1992-yil SSSR fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi nomini Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxiviga o'zgartiriladi. Hozirgi kunda arxivda Rossiya tarixiga oid barcha turdagi ovoz yozib oluvchi qurilmalar orqali yozib olingan fono hujjatlar arxiv fondlarini asosiy qismini tashkil qiladi. Bu arxivda saqlanayotgan ovozli hujjatlardan mumdan tayyorlangan valik, ya'ni fonograf, metal grammplastinkalar va ovozli har xil ovozli filmlar, magnit fonogrammalar, lazerli kompakt disklar tashkil qiladi. Arxivning fono (audio) hujjatlari o'z navbatida mazmun jihatdan rus xalqining ijtimoiy hayotning turli javhalarini ya'ni ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid fono hujjatlar tashkil qiladi. Arxivda saqlanayotgan hujjatlar rus xalqining siyosiy hayotiga oid fono hujjatlar kam sonni tashkil qilsada lekin, davlat ahamiyatiga molik muhim ma'lumot beruvchi fono hujjatlar hisoblanadi. Bunday ovozli hujjatlar jamiyat hayotining muhim siyosiy harakteriga ega bo'lib, boy arxiv fondini tashkil qiladi. 1991-yildan arxivdagi hujjatlarga ilmiy ma'lumotnoma apparati tuzib chiqiladi. Shuningdek, barcha arxiv hujjatlariga putivoditel (yo'l ko'rsatkich)lar tuzib chiqiladi. Arxivning asosiy fondlaridan Rossiya madaniy tarixiga oid ovozli hujjatlar ham alohida o'rin egallaydi. Rossiya davlatining siyosiy jarayon bilan bog'liq bo'lgan hukumat binosidagi yig'ilishlarining ovozli yozuvlari, madaniyat bilan bog'liq ovozli hujjatlar bundan tashqari, asosan davlat ahamiyatiga taaluqli fono hujjatlar to'plamlari mavjud. Shuningdek, bu arxiv M. N. Pyatniskim tomonidan birinchi bo'lib madaniy merosga oid ovozli hujjatlarni saqlovini ta'minlashni amalga oshirgan shaxs hisoblanadi. Rus xalqi san'atining ovozli hujjatlari eng qadimgi hujjatlardan hisoblanadi. Bugungi kunda bu hujjatlar maxsus saqlanadigan hujjatlardan hisoblanadi va hozirgi kunga qadar to'ldirib kelinmoqda. Bundan tashqari, Rossiya madaniyati tarixiga oid diniy qo'shiqlar ham alohida o'rin egallaydi. Faqatgina ular diniy hujjatlarga emas, rus provaslav cherkovi va boshqa diniy konfessiyalarining qasidalari va marosimlariga oid fono

hujjatlar ham saqlanmoqda. Shuningdek, arxivda ko'plab simfoniya va operaning ovozli hujjatlari, aktyor va qo'shiqchilarning kolleksiyalaridan o'rin olgan. Bu hujjatlar arxivning madaniy meros bo'limida saqlanmoqda. Bundan tashqari arxivda Rossiya xalqining milliy qo'shiqchilik san'atining: klassik, raqs va rok kabi zamonaviy qo'shiqlar arxiv fondidan o'rin olgan. Rossiya teatrlaridagi dramalardan parchalar va yakkaxon pardalar kabi ovozlari yozilgan materiallar arxivning xalq og'zaki ijodiyoti bo'limida joylashgan.

Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxivida foydalanuvchilar e'tiboriga arxiv fondining tematik sharxi ovozli hujjatlar haqida axborot beradi. Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxividagi hujjatlarni tematik katalogi tuzilgan. Arxivchilar tomonidan doimiy ravishda ovozli yozuvlar bilan to'ldirib turiladi. Statistika ma'lumotlar doimiy ravishda arxivning maxsus saytida e'lon qilinib boriladi³³. Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxivining foydalanuvchilariga quyidagicha tartibda ma'lumotlar beriladi: buyurtma asosida elektron bo'lgani uchun CD va DVD formatidagi disklarga, fleshkaga o'tkizib berish orqali xizmat ko'rsatadi.

Arxivda hozirgi kunda jami 705 ta fond bo'lib, ularda 245 000 ga yaqin saqlov birligidagi hujjatlar saqlanmoqda. Bulardan 3,5 mln. saqlov birligidagi yozib olingan ovozli hujjatlar bo'lib, asosan 1898-yildan hozirgi kungacha bo'lgan hujjatlar tashkil qiladi. Shu bilan birga, bu hujjatlardan: mumli valiklar 557 saqlov birligida, asl gramplastinkalar – 64094 saqlov birligida, ovozli lentalar – 20 saqlov birligida, filmlarning ovozlari – 808 saqlov birligida, shorin fonolar – 398 saqlov birligida, magnit tasmalar – 51833 saqlov birligida, kompakt kassetalar – 3915 saqlov birligida, kompakt disklar – 13603 saqlov birligidagi miqdorda ovozli hujjatlar saqlanmoqda. Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxividagi hujjatlar asosan, XIX asr oxiridan to hozirgi kungacha bo'lgan badiiy va ovozli hujjatlar tashkil qiladi. Bu yerda hamma turdagi ovoz yozib oluvchi qurilmalar masalan,

³³ <http://xn--80afe9bwa.xn--p1ai/ob-arkhive/history.shtml>

mumli fonograflar, kino tasnadagi ovozlari, shuningdek, mexanik usulda tayyorlangan asl metall grammafona, magnitli disklar va gramplastinkalarga yozilgan ovoqli hujjatlar jamlangan³⁴. Rossiya fono hujjatlar Markaziy davlat arxividagi hujjatlardan quyidagi foydalanish usullari mavjud. Fono hujjatlardan foydalanishning asosiy usullari quyidagilardir: hujjatlarning tarkibi va mazmuni haqida tashabbusli axborot tayyorlash, mavzuli so'rovnomalarni bajarish, tele va radioeshittirishlar tayyorlash, tadqiqotchilarga o'quv yoki eshitish xonasida ishlash uchun hujjatlarni vaqtincha foydalanishga berish hisoblanadi. Quyidagi usullardan foydalanish asosan ommaviy axborot vositalari xodimlari, ilmiy tadqiqot olib boruvchilar tomonidan muntazam ravishda foydalanib turiladi.

Qozog'iston kino, foto, fono hujjatlar Markaziy davlat arxivi. Qozog'iston kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy Davlat Arxivi 1941-yil 29-mart kuni SSSR Xalq komissarlarining 723-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, Qozog'iston SSR Xalq komissarlari kengashining 1943-yildagi 1-aprel 25-sonli arxivni tashkil qilish to'g'risida qaroriga muvofiq, 1943-yil 27-yanvar kuni Olma-Ota shahrida Qozog'iston kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy davlat arxivi tashkil qilindi. Qozog'iston kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy davlat arxivi Qozog'iston SSR NKVD arxivi departamenti bo'limi sifatida va uning qoidalarga binoan boshqariladi. Qozog'iston kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy davlat arxivi tarkibida, mamlakat tarixiga oid ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotni aks ettirgan hujjatlar saqlanadi. Arxiv 1957-yilning oxirida Qozog'istonda Markaziy davlat arxivlari qayta tashkil qilingandan so'ng, Respublikasi Markaziy arxivining bo'limi sifatida Qozog'iston SSR kino, foto va ovoqli hujjatlar bo'limi sifatida tashkil qilindi. Qozog'iston SSR Vazirlar Kengashining 1974-yil 7-yanvardagi 50-sonli qaroriga muvofiq film, telefilm, foto va ovoqli hujjatlarni markazlashtirildi, shuningdek Qozog'iston SSR kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb tashkil etildi. 1974-yilda Qozog'iston SSR kino, foto va ovoqli hujjatlar Markaziy davlat

³⁴ <http://xn--80afe9bwa.xn--p1ai/fondy-rgafd/karakteristika-fondov.shtml>

arxivi takibida 3 bo'lim tashkil qilindi. Bular: Kino hujjatlar bo'limi; fotosuratlar bo'limi; ovozli yozuvlar bo'limi.

Yuqoridagi bo'limlarda davlatning Qozog'iston xalqining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid audiovizual materiallar saqlanmoqda. 1943-yildan boshlab arxivda hujjatli filmlar, ya'ni II jahon urushida olingan hujjatli filmlari arxiv saqloviga topshirildi. Arxiv fondiga hujjatlarni boyitishda mamlakatning Markaziy kinostudiyasi, Moskva, Leningrad va Olma-ota kinematograflari hissalarini katta bo'ldi. Shuningdek, arxiv fondida Markaziy kino studiya tomonidan yaratilgan "Soyuzkinojural" va II jahon urushi yakunlanishi natijasida olingan filmlar arxivning "Oltin fond"ida saqlanmoqda. Arxivning eng nodir filmlarini "Жизнь и быт казахов" (1927-yil), "Olma-Ota-Qozog'iston poytaxti" (1929-yil), "Turksib" (1930-yil)lar hisoblanadi. Qozog'iston Respublikasining tarixiga oid alohida hujjatli filmlar, fuqarolar urushi, II jahon urushi ishtirokchilari portretlari, mehnat qahramonlari, ilm-fan va madaniyat namoyandalarining kino, foto va ovozli hujjatlari tashkil qiladi. Bulardan: "Turor Risqulov", "Aliya", "Dina", "Amangeldi Imanov", "Manshuk", "Oliy osmon Talgati", "Majit Begalin", "Saken Seyfullin" va boshqalar hisoblanadi. Bu kinolar, asosan "Vostokkino" va "Mejrab-prom" kinostudiyalari tomonidan suratga olingan. Ayniqsa, Qozog'iston hayotiga oid nodir kinolar, jurnallar, syezlar va mitinglar tasmalari arxivda saqlanadi. Bu kino, foto va ovozli hujjatlar qariyb 30000 saqlov birligini tashkil etadi. Arxiv har xil va turli hujjatli fotosuratlar jamg'armalariga ega. Asosan, bu hujjatlarning asosiy qismi XIX asrning oxiri – XX asrga taalluqli hisoblanadi. Shuningdek, qozoq xalqining kundalik turmush tarzining aniq tasvirlari, shaharlarning ko'rinishlari va ular to'g'risidagi hujjatli filmlar tashkil qiladi. Xususan, arxivda shaxsiy arxiv fondlari ham topshirilgan. Bularga, qozoq milliy san'atiga oid mashhur san'atkorlar shaxsiy fondlari kiradi. Ulardan D. P. Bagayevaga tegishli shisha plastinkalar, fotosuratlar va albomlar saqlanadi. Arxivning fotosuratlar fondi saqlovxonasida 250000 saqlov birligidagi negativ foto hujjatlar ham saqlanmoqda. Arxivning ovozli hujjatlar saqlovxonasida 15000 saqlov birligidagi nodir hujjatlar, ya'ni

ovozli yozuvlar saqlanmoqda. Bu nodir manbalar, asosan grammplastinkalarda, CD disklarda, kassetalarda, kompakt disklarda saqlanadi. Bu ovozli yozuvlar qozoq xalqining musiqa san'ati, birinchi qozoq operasi, mashhur zamondoshlarining jonli ovozlarini yozib olingan tasmalari tashkil etadi. 1992-yilda yanvar oyida, Qozog'iston kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb nomlandi.

Bugungi kundagi arxiv fondlaridagi materiallar Qozog'iston davlatining ahamiyatiga molik hujjatlari bilan to'ldirilmoqda. Qozog'iston Respublikasining arxiv ishini rivojlantirish dasturiga ko'ra, 2001–2005-yillarda arxivni yangi texnologiyalar bilan jihozlash ishlari amalga oshirilgan³⁵. Qozog'iston kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanayapgan hujjatlardan foydalanish usullariga to'xtaladigan bo'lsak, unda faqatgina murojaatlarga kreso nusxalari va elektron shakilda berilishi ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar markaziy davlat arxivi dastlab 1943-yilda tashkil topgan. 1959-yilda O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivining kino, foto va ovozli hujjatlar bo'limi etib qayta tashkil etilgan. 1974-yildan O'zbekiston SSR kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi, 1992-yil sentabrdan O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi deb qayta nomlandi. O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi-O'rta Osiyodagi eng yirik va O'zbekistondagi yagona, maxsus hujjatlar saqlovi uchun ixtisoslashgan arxivdir.

O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi O'zbekiston Respublikasida o'z sohasiga tegishli bo'lgan maxsus hujjatlar bilan ishlashda ilmiy-uslubiy markaz hisoblanadi. Arxivda O'zbekiston va Turkiston o'lkasining XIX asrning 60-yillaridan to hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrlarga oid tarixni o'zida aks ettirgan noyob hujjatlar yig'ilgan. Kollonial davr fotohujjatlarida Turkiston o'lkasidagi milliy-ozodlik harakatlari (1898, 1905–1907-yillar)

³⁵ <http://www.kfdz.kz/index.php?module=History>

ko'rinishlarini, chor Rossiyasi vakillari tomonidan o'lkaning boshqaruvi, ularning mahalliy hokimiyat bilan munosabatlari, sud organlari faoliyati, Qo'qon xoni va Buxoro amirining xalqaro munosabatlari va aloqalari, musulmonlar dini va turmush tarzi tasvirlangan. Foto hujjatlarda sanoatning rivojlanishi, temir yo'l ko'priklarining qurilishi, sug'orish kanallari, teri va yog' zavodlarining ishlab chiqarish faoliyati, to'qimachilik, ipakchilik fabrikalari, gilam to'qish hunarmandchiligi, qishloq xo'jalik inventari, ko'mir sanoati va boshqalar qishloq xo'jalik sodda mehnat qurollari, yerni omoch bilan haydash, qo'l bilan paxta terish va boshqalar, transport va aloqalar vokzal binolarining ko'rinishlari; Toshkent temir yo'li, Toshkentda Turkiston pochta-telegraf xizmatchilarining X o'lka sezdi (1917-yil), savdo-sotiq (gazlama sotuv do'konchalari, do'ppilar, sopol idishlar, Samarqanddagi Registon maydonidagi sotuv rastalari; Andijon, Buxorodagi bozorlarning umumiy ko'rinishlari va boshqalar) tasvirlangan. Suratlar o'zida o'lkadagi sog'liqni saqlash, maorif va fanning rivojlanishi, Turkiston ilmiy-tekshirish komissiyasi-ning ishlari, Samarqanddagi Ulug'bek observatoriyasi qazilmalari, musulmon maktablaridagi darslar, maktabdagi urf-odatlar, kasallarni eskicha davolash usullari, "o'qib dam solish", ko'cha musiqachilarining chiqishlari va boshqalarni aks ettirgan. Sho'rolar davri kino, surat va ovozli hujjatlarida hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududida Sho'ro hukumatining o'rnatilishi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Turkiston ASSR, O'zbekiston SSR-dagi davlat hukumati, ushbu respublikalar jamoat tashkilotlarining faoliyati, xalq xo'jaligi, fan-texnika, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat va san'at, sport, xizmatchilarning dam olishi, shuningdek bu respublikalar vakillari va chet davlat siyosiy jamoat arboblarning yuqori partiya organlari faoliyatida ishtirok etishi, fan va madaniyat arboblarning O'zbekistonga tashriflari va o'z vakillarining boshqa respublikalarga safarlarini o'zida aks ettirilgan. Badiiy ovozli hujjatlar O'zbekiston, Sovet va chet el kompozitorlari asarlari, xalq musiqalari, she'riy, nasriy va drammatik asarlar, taniqli qo'shiqchilarning chiqishlari, xalq ijrochilari, respublika musiqa kollektivlari, jumladan Tamaraxonim, M. Baratova, M. Turg'unboyeva, N.

Ahmedova, T. Qodirov, M. Uzoqov, Y. Rajabiy va boshqa ovozli yozuvlardan iborat. Shuningdek, O'zbekistonda xotin-qizlar ozodligi uchun harakati (Hujum): xotin-qizlar orasida paranjini butunlay yo'q qilishga qaratilgan miting va yig'ilishlari, Respublika ayollarining s'yezd va slyotlari, savodsizlikka barham berishga qaratilgan kino, suratlar ham mavjud.

Arxivning kino va foto hujjatlari II jahon urushi davridagi respublika hayotini, ko'p millatli O'zbekiston xalqining frontdagi qahramonligi, front orqasida o'zbek xalqining yetim bolalarni asrab olish, mamlakatga zavod va fabrikalarni evakuatsiya qilinishi, mehnatkashlarning mitinglari, frontga ko'ngillilarni kuzatish va boshqalarni ko'rish mumkin. Arxivda urushdan keyingi davrlarda respublika xalq xo'jaligi tarmoqlari energetika, yoqilg'i sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, stanoksozlik, asbobsozlik sanoati va boshqalar, transport va aloqaning rivojlanishi; O'zbekistonda qishloq xo'jaligining rivojlanishi (qishloq xo'jaligi ilg'orlari va ishchilarining sezd va Quriltoylari), qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va kollektivlashtirish, paxtachilik va chorvachilikni rivojlantirish) o'zida tasvirlangan kino, foto hujjatlar mavjud. Ushbu kino, foto hujjatlar madaniyat qurilishi, fan, sog'liqni saqlash, san'at, jismoniy tarbiya va sport rivojlanishi haqida ham tushuncha beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davri kino, foto va ovozli hujjatlari O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi, demokratik jamiyat qurilishi, davlat boshqaruvining yangi tizimini vujudga kelishi, markaziy organlari faoliyatining maqsad va vazifalaring o'zgarishi, bank tizimining qayta tashkil etilishi, jahon tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining tan olinishi, chet mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, ko'p partiyaviylikning va jamoat harakatining vujudga kelishi, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlikning rivojlanishi, yangi manaviy dunyoqarashning vujudga kelishini o'zida aks ettirgan. Arxivning kino hujjatlari M. Qayumov, D. Salimov, Sh. Zohidov, I. Gibalevich kabi va ko'pgina boshqa hujjatli kino ustalari ishlari bilan tanishtiradi. O'zbekiston Respublikasi Kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida irrigator P. M.

Kildyushovning, Toshkent tramvay-trolleybus boshqarmasi faxriy ishchisi M. A. Yusupovning, Toshkent Davlat Universiteti biologiya-tuproqshunoslik fakul'teti professori I. A. Raykovaning, Respublikamizning sport faxriylari L. Ivanova va R. Semerninlarning, "Ташкентские малчишки" kitob avtori, jurnalist L. Berejnixning, Respublikamizning markaziy ro'znoma va oynomalari fotomuxbirlari M. Z. Penson, I. N. Panov, A. P. Shteynberg, U. Nurumbayev, Y. Ryapasov, M. Y. Rozankrans va boshqalarning fotohujjatlar kolleksiyalari (to'plamlari) saqlanadi.

Arxiv quyidagi xizmatlarni bajaradi: arxivda saqlanayotgan kino, surat va ovozli hujjatlar haqida ma'lumot berish, tadqiqotchilar o'rganishi va ishi uchun kino, surat va ovozli hujjatlarni taqdim etish, kinohujjatlarni video tasмага ko'chirib berish, surat va ovozli hujjatlar nusxalarini tayyorlash, fotoko'rgazma va stendlarni tashkil etish, mavzuli so'rovlarni ijro etish, fotoalbomlar tayyorlash, arxiv bo'yicha umumiy va mavzuli ekskursiyalarni tashkil etish.

Ko'rsatilgan xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovnomalari asosida amalga oshiriladi. Arxivning kino, foto va ovozli hujjatlari faqat arxiv rahbari ruxsati orqali taqdim etiladi. Ruxsat beriladigan muddat ish mavzusi bo'yicha belgilanadi. Tadqiqotchilarni kino, foto va ovozli hujjatlar bilan ishlashi arxivning kino zali, katalog va ovozli hujjatlar eshitish xonalarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida tez va sifatli tartibda javob berishini nazorat qilinadi. Tashkilot idora muassasalarga to'xtalsak arxivda saqlanayapgan hujjatlarni keng ommaga e'lon qilish maqsadida "Zvezda vostoka" ko'rsatuvi tashkil qilingan bo'lib unda O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivining eng nodir materiallari televediniya orqali ko'rsatilyapganini ko'rishimiz mumkin. Fuqaro murojaat qiladigan bo'lsa esa, uch kundan bir oy muddatda ko'rib chiqilib ijobiy hal etiladi.

Demak, bugungi kunda quyidagi audiovizual arxivlar tajribalaridan foydalanib, Respublikamizda yagona O'zbekiston Respublikasi kino, foto va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi faoliyatini takomillashtirib, hamkorlik o'rnatish ishla-

rini olib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat tarixiga oid kino, foto va ovozli hujjatlarni saqlanishini ta'minlash va ularni kelajak avlodga yetkazish har birimizning vazifamizga kiradi.

II BOB. TARIXIY TADQIQOTLARDA AUDIOVIZUAL MATERIAL- LARLARDAN FOYDALANISH USULLARI

2.1. Audiovizual manba tushunchasi va ahamiyati.

Audiovizual atamasi aslida lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “audio”- eshitmoq, “visualis”- koʻrish degan soʻzlar birikmasidan iborat hisoblanadi. Demak, ham eshitib, ham koʻrish ishlari jarayoni amalga oshiriladi. Bunday manbalarga kino, foto, va ovozli hujjatlarni kiritishimiz mumkin.

Audiovizual hujjatlarni arxivlarda qachondan boshlab saqlanayotganligi toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar mavjud emas. Shuni taʼkidlash mumkinki, audiovizual hujjatlar fan-texnika taraqqiyoti natijasidagi kashfiyotlar natijasida paydo boʻla boshlagan. Audiovizual maʼlumotlarni yaratuvchi va tarqatuvchi qurilmalarining vujudga kelishi, rivojlanishi bilan chambarchas yuksalib bordi. Dastlab ovozli, kino, radio va televideniye oʻid hujjatlar bir-biridan alohida hujjatlar sirasiga kiritilardi. Keyinchalik televideniye oʻid materiallar ishlab chiqarish alohida sanoat tarmogʻi sifatida paydo boʻla boshladi. 1930-yildan bu hujjatlarga alohida eʼtibor berila boshlandi. Shu yildan boshlab, xalqaro assosatsiyasi yaʼni audiovizual axborot tashuvchi arxivlari tashkil qilina boshlandi. Natijada, audiovizual arxivlarni xalqaro tashkilotlar odatdagi arxivlar sirasiga kiritishdi. Dastlab, bu audiovizual materiallar kutubxona va muzeylarda saqlangan. XX asr boshlarida esa, ovozli yozuvlar va kinofilmlarni bunday ahamiyatiga ega boʻlishini taxmin qilib boʻlmas edi. Dastlabki urinishlarda audiovizual materiallarni jamlash, zamonaviy axborot uzatuvchi qurilmalar asosida amalga oshiriladi.³⁶

Audiovizual hujjat esa tasviriy va ovoz axborotlaridan tashkil topgan hujjat hisoblanadi³⁷. Shuningdek, qoʻllanishiga koʻra oʻzida mantli axborotni ham tashkil qilishi mumkin.

³⁶ Эдмондсон Р. Аудиоизуальное архивирование: философия и принципы. – Париж, 2004. – С. 31.

³⁷ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли лугати. / Р. Файзиева., Р. Шамсутдинов. Маъсул муҳаррир. П. Н. Неъматов. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000. – Б. 20.

Audiovizual manbalar asosan texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan hujjatlar sirasiga kiradi. Bularga asosan, fotografiya, kino va ovozli hujjatlarni kiritishimiz mumkin. Tarixni yoritish jarayonida tadqiqotchiga ushbu audiovizual manbalar muhim axborot beruvchi manbalar hisoblanadi. O'z navbatida, audiovizual hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: kino, foto, fono va video hujjatlarga asoslanadi. Rossiya olimlaridan, V. M. Magidovning asari kino, foto va ovozli hujjatlarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatiga bag'ishlanadi.³⁸

Ko'plab olimlar tomonidan audiovizual hujjatlarning asosiy tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan: jumladan, kino hujjatlar - kinematografik texnika vositasi bilan ovozsiz kino buyumlarni (predmetlarni) ular joylashganidek ko'rinishda ketma-ket qayd etadigan, ovozli kinoda esa, shuningdek shovqin, nutq, musiqa tarzida axborot beradigan tasviriy yoki audiovizual hujjat hisoblanadi³⁹. Kinohujjatlarda ham tasviriy hamda ovozli ma'lumotlar aks etishi mumkin.

Fotohujjatlar esa fotografiya texnikasi vositasida narsalarni alohida tasvir shaklida qayd etadigan tasvirli hujjat hisoblandi. Fonohujjatlar ovoz yozib olishning biron bir tizimi (mexanik, fotografiyali (optik) magnitli) tomonidan qayd etilgan ovozli axborot (og'zaki nutq, musiqa, shovqin)dan iborat hujjatdir.

Audiovizual hujjatlar original va ko'chirma nusxa hujjatlarga bo'linadi. Original kinohujjatlar – yorug'likning ta'sir etishi natijasida kinoplyonkada axborotlarni saqlanishi va kimyoviy qayta ishlash natijasida axborotni o'zida saqlaydigan hujjatlar hisoblanadi. Original kino, fotohujjatlar negativ, pozitiv asosida plyonkaga muhrlanadi. Negativ – tasvirga tushirilayotgan ob'yektdagi taqsimotga nisbatan oq-qora hamda rangli ko'rinish teskari (oq o'riniga qora aksincha qora o'rniga oq tasma yoki plastinka) tasvirlangan kino va fotohujjatlarning asli hisoblanadi.

Shuningdek, kino hujjatlar turlari, asosan kompozitsion tuzilishining yaxlitligiga ko'ra birlashtirilgan (xillangan) va bir-biridan rangiga ko'ra farqlanadigan

³⁸ Магидов М. В. Кинофотофонодокументы как исторический источники. – М., 1992. – С. 116.

³⁹ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати....– Б. 81

(oq-qora, rangli) kino hujjatlar yig'indisi hisoblanadi. Bularga misol qilib quyidagilarni kiritishimiz mumkin: filmlar, maxsus ko'rsatuvlar, kino jurnallar, kinotelesyujetlar kiradi. Shuningdek, foto hujjatlar tarkibiga aerofotohujjatlar turkumini, ya'ni uchish apparatlari yordamida fazoviy ob'yektlar hamda yer va yerdagi narsalar surati olingan hujjatlar hisoblanadi⁴⁰.

Kino hujjatlar saqlov birligi deganda kino hujjatlarning alohida tasmali o'rami tushuniladi. Kino hujjatlar to'plami – ma'lum bir fil'm, kinojurnal, maxsus chiqishlar, mavzuga tegishli kinohujjatlar asl va ko'chirma nusxalarning arxivda saqlanadigan yig'indisini o'zida aks etadi. Kinohujjatlar hisob varag'i – o'zida muayyan turdagi kinohujjatlar hisob birligi va saqlov birligi hajmidagi o'zgarishlar aks etadigan, shuningdek ro'yxat hisobi va raqamlanishini (sanog'i) uchun xizmat qiladigan hisob hujjati deyishimiz mumkin. Kinohujjatlarning montaj varag'i – tugallangan kino asarining davlat arxivi tomonidan (rejissyorlik montaj varag'i bo'lmagan hollarda) barpo etiladigan kadrma-kadr tasviri yig'indisidan iborat film parchalarini o'z ichiga oladigan arxiv ro'yxatining bir ko'rinishi tushuniladi.

Kinohujjatning nazorat nusxasi – kontratip olingan hamda mazkur kontratipdan olingan film nusxalari namunasi sifatida tasdiqlangan oq-qora yoki rangli ovoqli nusxa. Tonfilm – ovoqli axborot kinotasmaga optik (fotografik) yo'l bilan tushirilgan fono (ovoqli) hujjat⁴¹.

Fotografiya tarixiy manba sifatida turli xil ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Bir tomondan, tadqiqotchilarga ilmiy tadqiqoti mavzusiga oid tarixiy davrni aniqroq izohlashga yordam beradi. Natijada, ularni diqqat bilan ko'rib chiqilganda, tahlil qilinganda tasvir ko'rinishi, voqeani sanasini aniqlash kabi diqqatga sazovor ma'lumotlarni aniqlash uchun zamin yaratadi. Tarixiy tadqiqot olib boruvchi tadqiqotchi tomonidan tasviriy manbalarni o'rganish jarayoni muhim o'rin tutadi. Chunki, tadqiqotchi uchun yangi faktlarni aniqlash uchun yordam beradi.

⁴⁰ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати....– Б. 21

⁴¹ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати....– Б. 75

Shuningdek, manbalarni to'g'ri izohlashga imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birga tadqiqotchi mavzusini yoritishda asosiy jihatlarini ochib beradi⁴².

Fotohujjatlarning turlari quyidagicha aniqlash mumkin: Manba haqiqiyliги belgisi ko'ra: negativlar va pozitivlarga bo'linadi. Materiallarning tarkibiy birligiga ko'ra: shisha, plyonka, qog'ozlar va rangiga asosan belgilanadi⁴³. Shuningdek, fotohujjatlaning yana quyidagi asosiy tushunchalari ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: Fotoal'bomning ichki ro'yxati – fotohujjatlarning ichki ro'yxati bo'lib, fotohujjatlarning tartib raqamini, mazmuni haqida qisqa axborotni, shuningdek, surat olingan sana va joy ko'rsatuvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Fotokadr – suratga olish ob'yekting fotopllyonka, fotoqog'oz yoki fotoplastinkada tasvirlangan yagona tasviri.

Fotomaterial – fotografiya (suratga tushirish) yo'li bilan olingan axborotni mustahkamlashga mo'ljallangan yorug'lik sezgi ish qatlamiga ega bo'ladigan jarayon hisoblanadi.

Fotonusxa – yozma yoki tasvirli hujjatning ko'chirma nusxasini ifoda etuvchi fotohujjat.

Fototeka – birinchidan, tashkilotning fotohujjatlar arxivi; ikkinchidan, fotohujjatlarning muayyan tartibga solingan majmui.⁴⁴

Kino hujjatlar esa o'z navbatida tasviriy, ham ovozli (audio) hujjat bo'lib, kinemotografiya texnikasi yordamida borliqni predmetlar, jarayonlar, tasvirlarni ketma-ketlikda yoritib berish bilan birga, xuddi o'sha predmetlar, jarayonlar, jarayonlarning tovush, musiqa va shovqin ko'rinishlari bilan ham birga qimmatli ma'lumot bera oladi. Kino, foto va ovozli hujjatlar tadqiqotchiga o'rganilayotgan davr va jarayonlar haqida ma'lumot bera oluvchi muhim va ishonarli manba bo'lib xizmat qila oladi. Shuni ta'kidlash joizki, tarixiy tadqiqotlar asosini tashkil etuvchi turli xil manbalarning tarixiy tanqidini olib borish voqealarni aks ettirish,

⁴² Козловцева Е. И. Изобразительные источники по истории общин сестер милосердия... – С. 149.

⁴³ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати.... – Б. 81.

⁴⁴ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати.... – Б. 82.

hujjatlarni paydo bo'lishi va ularni qalbakilashtirish kabi imkoniyatlar yordamida manba muallifining hujjatlarni yoritishda sub'ektiv ta'sir o'tkaza olishidan kelib chiqadi.

Tarixiy manbalarni klassifikatsiya qilishning aniq bir prinsipi hozirgi kungacha ishlab chiqilmagan. Ba'zi manbashunos mutaxassislar manbalarni mazmuniga qarab tasnif qilish kerak, deb hisoblaydilar. Boshqa guruh olimlar esa manbaning qayerda va qachon yaratilganligiga qarab klassifikatsiya qilishni afzal ko'radilar. Yana bir guruh olimlar esa ular manbalarni turi: rasmiy xujjatlar, tarixiy va geokosmografik, biografik asarlar va audiovizual manbalarga bo'lib klassifikatsiya qilishni tavsiya etadilar. Shuningdek, tarixiy manbalarni avtograf (muallifning o'z qo'li bilan yozilgan, suratga olingan yoki ko'chirgan nusxa) yoki boshqa bir shaxs tomonidan ko'chirilgan nusxa bo'lishiga qarab tasnif qilish hollari ham uchrab turadi. Tarixiy manbalar ustida ishlashning hozirgi bosqichida, bulardan faqat bittasiga – manbalarni turlariga qarab klassifikatsiya qilish tamoyildaga asoslanib ish yuritish nisbatan boshqa usullarga qaraganda ancha qulay hisoblanadi. Tadqiqotchining asosiy vazifasi doirasiga manbalarni tasniflash birinchi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, manbalarni turlariga qarab klassifikatsiya qilish prinsipidan foydalanish hozircha maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kino hujjatlarga oid ma'lum asosiy atamalardan foydalanish tadqiqotchi olim uchun bir qancha qulayliklar tug'diradi. Bularga: kinokadr – kinotasmaga suratga olingan ob'yekt harakatining biron bir daqiqasi yoki turg'un holatini aks ettiruvchi alohida tasvir.

Kinoplyonka – egiluvchan, yupqa asosli, g'altakka o'ralgan tasma ko'rinishidagi va kinotasvirga olish, rangli va qora-oq kinohujjatlarni bosish va nusxalarini ko'paytirish, ovoz yozish va uni eshittirishga mo'ljallangan homil material. Kinotasvirlar xatlovi – ayrim kino asarining asosiy mazmunini, shuningdek, filmda foydalanilmagan kinokadrlarni kadrma-kadr bayon etishdan iborat arxiv ro'yxati turi hisoblanadi⁴⁵.

⁴⁵ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати....– Б. 44

Shu o'rinda jamiyat hayotidagi kundalik voqealarni aks ettiruvchi hujjatli fotografiya, kino va ovozli manbalarning aksariyat qismi XX asrdagi ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida shakllana boshlaganligi bizga tarixdan ma'lum. Ushbu manbalarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati ularning bo'lib o'tgan voqealar bilan bir vaqtni o'zida vujudga kelishi bilan baholanadi. Demak, voqealarni tasvir orqali aks ettiruvchi foto va kino hujjatlar, shuningdek, ularning ovozli jihatini yorituvchi fono manbalar ob'ektiv haqiqatni namoyon etadi. Bundan tashqari, audiovizual manbalarda muallif (fotograf, kinorejissyor, ovoz operatori) ning sub'ektiv ta'siri yozma manbalarga nisbatan ancha sust bo'ladi. Negaki, voqealar qalam bilan emas, balki maxsus apparatura yordamida olinadi. Lekin, hujjatdagi syujet, vaqt va joy, hamda aniq personajlar yoki ovoz apparaturani boshqarib turuvchi inson tomonidan tanlab olinadi. Shuning uchun ushbu manbalarda voqealarni aks ettirishda ham ob'yektiv, ham sub'ektiv omillar mavjud bo'ladi. Tarixiy manbalar klassifikatsiyasi masalasi manbashunoslikda eng murakkab nazariyalardan bir sanaladi. Ma'lumki, tarixiy manbalar klassifikatsiyasi tadqiq etilayotgan materiallarni tartibga solish, tizimlashtirish va tahlil etishda eng foydali usullardan biridir. Manbashunoslar tomonidan tarixiy manbalarni klassifikatsiyasi o'zining nazariy va amaliy jihatlari va aniq vazifalar bajarishini ta'kidlashadi.

Manbashunos M. Varshavchik tadqiqot jarayonida ular quyidagicha aniqlagan: Klassifikatsiya tamoyillarini ishlab chiqish, turli xil manbalarning ichki xususiyatlarini aniqlash, ushbu manbalarni umumiy guruhlariga ajratish va ulardan foydalanish, turli xil guruhlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni aniqlash⁴⁶. Manbashunos olim M. Varshavchik tadqiqoti jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, tadqiqotchilar uchun manbalardan foydalanishda anchagina osonlashdi. Manbalarni ichki xususiyatini aniqlashda yordam beruvchi tur va xillarga ajratish hujjatlarni manbaviy tahlili usulini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Manbashunoslikda har bir tadqiqotning aniq maqsadidan kelib chiqqan holda tarixiy

⁴⁶ Дармонова М. А. Тарихий тадқиқотларда аудиовизуал манбалардан фойдаланишнинг усул ва тамойиллари. Магистрлик даражасини олиш учун диссертация. – Т., 2014. – Б. 41.

manbalarni klassifikatsiyasi usullari va tamoyillari keng tarqalgan. Audiovizual manbalar tarixiy o'tmishni texnika vositasida suratga oladi va namoyish etadi. Bunda, yuqorida qayd etilganidek, manba muallifini ta'siri suratga olish joyi, vaqti, holati va odamlarni tanlab olishda namoyon bo'ladi. Tanlov amalga oshirilgandan so'ng texnik vositalar voqelarni qanday tasvirga tushirilgan bo'lsa, shunday aks ettiradi va eshittiradi. Manbalarning yana bir xususiyatlaridan biri tarixiy voqealarni tasvirli, ta'sirchan qilib namoyish ettishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, inson aniq bir voqea yoki hodisani ko'rish yoki eshitish orqali his etadi va uni yaxshiroq tushunib, eslab qoladi. Audiovizual manbalarni boshqa manbalardan ajratib turuvchi jihati ham tarixiy shaxslarni ruhiy holatini ko'rsatib beradi. Bu esa o'z navbatida, tadqiqotchiga ijtimoiy psixologiya usullaridan foydalangan holda voqealarni kelib chiqish sabab va oqibatlarini yanada chuqurroq tushunishga va anglashga yordam beradi. Ta'kidlangan xususiyatlar barcha turdagi audiovizual manbalar: kino, foto va fono hujjatlarni tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa kino, foto, fono hujjatlarning tarixiy manblarning umumiy tizimida egallagan o'rnini aniqlashda yordam beradi. Ko'rsatilgan manbalarni manbada aks etgan tarixiy voqeani mazmuniga ko'ra kinohujjatlarni: 1. davriy kinojurnallar; 2. ma'lum voqealarni aks ettiruvchi hujjatlar; 3. mavzuli xronikal filmlar; 4. kundalik hayot aks etgan filmlarga ajratish mumkin⁴⁷.

Foto hujjatlar esa: 1. Tarixiy voqealarni aks ettirgan suratlar; 2. Taniqli shaxslar portreti; 3. Geografik hududlar, ko'cha va shaharlar ko'rinishlarini namoyish etgan hujjatdarga ajratish mumkin.

Ovozli hujjatlarni: tarixiy voqelardan yozib olingan manbalar, fonointervyu; fonomemuarlarga ajratish mumkin.

Ovozli hujjatlarni tasniflash tadqiqotchi uchun tarixiy voqelarni ob'yektiv baholash va ularni keltirib chiqargan sabab va omillarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularning yordamida tasvirga olingan voqea qay

⁴⁷ Исакова М.С. Использование аудиовизуальных источников в исторических исследованиях. // УзМУ хабарлари. – Ташкент, 2006. – №4. – С. . 43-45.

darajada to'liq aks etgani va uni yozma manbalardagi ma'lumotlardan farqini aniqlashda ham yordam beradi. Bir xil voqealarni mazmun jihatdan har xil bo'lgan filmlarda turli xil aks ettishi ham kuzatish mumkin. Masalan, kinojurnalda aniq faktlarga qisqacha ta'rif berib o'tilgan bo'lsada, hujjatli filmlarda voqealarni tassavur etish oson bo'lishi uchun qo'shimcha tasvirlardan foydalanish bilan birga, bir qancha faktlarni bir yig'inda ko'rsatib beradi. Albatta, bunday hollarda kinoxronikada aks etgan voqealar hujjatli filmga nisbatan haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Bunday farqlanishlar yanada ko'proq hujjatli fotografiya va ovozli manbalarda namoyon bo'ladi. Audiovizual materiallarni barcha yo'nalishdagi manbaviy tahlillarini o'tkazishda, ularda aks etgan voqea va hodisalarni aniq vaqti va joyi, ba'zi hollarda esa muallifini aniqlashda faqatgina mazmuniga qarab kino, foto, fono hujjatlarni klassifikatsiyasini yaratish bir muncha kamlik qiladi. Ushbu masala bilan qiziqib shug'ullanuvchi tadqiqotchi uchun ushbu turdagi manbalarda tarixiy voqealarni suratga olish va aks ettirish texnikasi bo'yicha klassifikatsiya ishlab chiqish muhim sanaladi. Xususan, xronikal hujjatli filmlarda tasvirlarni yozishni turli usullari mavjud, hamda tasvirga tushirilgan fakt yoki voqeani aks ettiruvchi fotografik usulda dastlab negativ so'ng pozitiv tasvir olinadi. Televideniyeining rivojlanishi natijasida keng tarqalgan manitli usulda asos sifatida magnit lentadan foydalaniladi. Ushbu usullar yordamida rangli va oq qora tasvirda, ovozli va ovozsiz kinolar tasvirga olinadi. Hujjatli fotografiya texnikasi ham odatda bo'lib o'tgan hodisalarni dastlab negativ, keyin pozitiv asoslarga olinadi. Pozitiv esa o'z navbatida oq qora yoki rangli suratlarni olish imkonini yaratadi⁴⁸.

Fono hujjatlarda ovozli yozuvlarning quyidagi turlari ajralib turadi:

1. Mexanik ovozli tasma (grammafonlarda).
2. Optik (kinolarda).
3. Magnit tasmalarda uchrashi mumkin.

⁴⁸ Исакова М. С. Из истории формирования архивного фонда кинофото-фонодокументов в Узбекистане // Ўзбекистон тарихидан илмий мақолалар тўплами / Тарихий тадқиқотлар туркумидан. – Т.: Тафаккур, 2009.– №1. – Б. 91–97.

Audiovizual manbalarni ushbu jihatlarini inobatga olgan holda tahlil etish, voqea joyi va vaqtini aniqlash, hujjat originalligini belgilash va sub'yektiv omillarni ajratib olish imkoniyatini yaratadi. Manbalarning bunday tasnifida tasvir yoki ovozni yozib olish usuli, voqea aks ettirilgan manbaning asosi, filmlarni ovozli yoki ovozsiz bo'lishi, tasvirlarni rangli yoki oq qora bo'lishini inobatga olish manbaviy tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi. Negativ va pozitivni taqqoslash yordamida kino, foto, yoki ovozli hujjatni originalligini aniqlash va unda tasvirlangan voqeani soxtalashtirish hollarni aniqlashda yordam beradi. Umuman olganda, audiovizual manbalarni turli xil tasnifini ishlab chiqish tadqiqotchiga olib borayotgan ilmiy izlanishlarida tarixiy manbalarni qiyoslash orqali ilmiy ist'emolga kiritish va bo'lib o'tgan jarayonlarga to'g'ri baho berish bilan birga tarixiy ob'yektivlikka asoslangan holda ilmiy xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyat hayotidagi kundalik voqealarni aks ettiruvchi hujjatli fotografiya, kino va ovozli manbalarning aksariyat qismi XX asrdagi ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida shakllana boshlagan. Ushbu manbalarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati ularning bo'lib o'tgan voqealar bilan bir vaqtni o'zida vujudga kelishi bilan baholanadi. Demak, voqealarni tasvir orqali aks ettiruvchi foto va kino hujjatlar, shuningdek, ularning ovozli jihatini yorituvchi fono manbalar ob'yektiv haqiqatni namoyon etadi. Bundan tashqari audiovizual manbalarda muallif (fotograf, kinorejissyor, ovozoperatori)ning sub'yektiv ta'siri yozma manbalarga nisbatan ancha sust bo'ladi. Negaki, voqealar qalam bilan emas, balki maxsus apparatura yordamida olinadi. Lekin, hujjatdagi syujet, vaqt va joy, hamda aniq personajlar yoki ovoz apparaturani boshqarib turuvchi inson tomonidan tanlab olinadi. Shuning uchun ushbu manbalarda voqealarni aks ettirishda ham ob'yektiv, ham sub'yektiv omillar mavjud bo'ladi. Audiovizual manbalarni boshqa manbalardan ajratib turuvchi jhati ham tarixiy shaxslarni ruhiy holatini ko'rsatib beradi. Bu esa tadqiqotchiga ijtimoiy psixologiya usullaridan foydalangan holda voqealarni kelib chiqish sabab va oqibatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ta'kidlab o'tilgan xususiyatlar barcha turdagi audiovizual manbalar: hujjatli kino,

foto va fonoga taalluqlidir. Bu esa kino, foto, fono hujjatlarning tarixiy manbalarining umumiy tizimida egallagan o'rnini aniqlashda yordam beradi.

2.2. Fotografiya, kino va ovozli hujjatlardan foydalanish usullari

Audiovizual materillardan har bir tarixchi tomonidan ilmiy tadqiqoti jarayonida foydalanayotganda har tomonlama xolis yondashish talab etiladi. Ilmiy tadqiqotchi audiovizual materillarda tarixga muhrlangan voqelik haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Arxivda saqlanayotgan video tasmadagi filmni tomosha qilayotgan foydalanuvchi tomonidan o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq muammolarga to'g'ri yondashish zarur hisoblanadi. Kino, surat va ovozli hujjatlardan foydalanayotganda tadqiqotchi ilmiy tadqiqoti jarayonida ularni sifatida aniqlash, har tomonlama o'rganish, ko'rib chiqib ularni ba'zi belgilariga e'tiborini qaratadi, ya'ni kino, surat va ovozli hujjatlar xususiyatlari va mohiyatiga ko'ra quyidagilarni yoritadi:

- hujjatlarni yaratish jarayonini aniqlaydi;
- vaqti va uning atrofidagi saqlangan ma'lumotlar;
- tasvir va ovozli yozuv haqidagi ma'lumotlar.

Yuqoridagi sanab o'tilgan xususiyatlar tadqiqotchi uchun aniq va asosiy tushunchalarni aniqlashga yordam beradi. Demak, tarixni o'rganishimizda arxiv manbalari muhim rol o'ynaydi.

Arxiv hujjatlaridan ilmiy tadqiqot, xalq xo'jaligi, tashviqot, ilmiy-ma'rifiy va o'quv maqsadlarida keng foydalaniladi. Arxiv hujjatlari tarix fanini rivojlanishi-da muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixchilar arxiv hujjatlarisiz qimmatli dalillar bilan asoslangan tarixiy asarlar yarata olmaydilar. Arxiv hujjatlariga boshqa fan va kasb vakillari: yozuvchilar, tilshunoslar, san'atshunoslar, arxitektorlar, biologlar, mediklar, muhandislar, geologlar va boshqalar ham murojaat qilishadi⁴⁹. Arxiv hujjatlari o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tashi bizga tarixdan ma'lum. Chunki, o'mishdan bizgacha saqlanib kelgan bu arxivdagi hujjatlarda

⁴⁹ Алимов И. А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Андижон, 2005. – Б. 63.

qilingan ishlar bilan tanishib chiqishimizga imkoniyat yaratadi. Tadqiqotchilar tomonidan ayniqsa, audiovizual arxiv materiallaridan foydalanib tadqiqot ishlarida o'tmish zarvaraqlarini ochishda muhim o'rin tutadi. Demak, audiovizual (foto, kino va ovozli) hujjatlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin. Bularga xizmat, ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, ma'rifiy va o'quv-tarbiya maqsadlarida foydalaniladi.

Aslida arxiv hujjatlaridan turli maqsadlarda xilma-xil yo'llar bilan foydalaniladi. Masalan, oily o'quv yurtlarida hujjatlardan o'quv maqsadlarida quyidagicha foydalanishlari mumkin: arxiv hujjatlaridan nusxalar olinib ko'rgazma va muzey tashkil etilishi mumkin. O'zbekiston tarining ayrim mavzulari bo'yicha hujjatlar to'plamini tayyorlab, undan darsda, seminarda foydalanish mumkin. Davlat arxivlarida hujjatlardan foydalanishni boshqa idoralar bilan hamkorlikda ham amalga oshiradi. Masalan, hujjatlar ko'rgazmasini muzeylar bilan birgalikda tayyorlaydi. Hujjatlarni gazeta va jurnallar orqali e'lon qilish, ular asosida radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar tayyorlash, gazeta va jurnallar tahririyatlari, telestudiyalar, radio-qo'mitalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi⁵⁰.

Davlat arxivlarida hujjatlardan foydalanishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1. Idoralarni arxiv hujjatlarining mazmunidan xabardor qilib turish, shu maqsadda arxiv axborot yozib yoki arxivda saqlanayotgan u yoki bu mavzuga doir hujjatlar ro'yxatini tuzib idoralarga jo'natiladi.

2. Davlat arxiv hujjatlarini e'lon qilish faoliyati. Bu maqsadda arxivlarda hujjatlar to'plamlari tayyorlanib, ular nashriyotlar orqali chop etiladi va ko'plab hujjatlar gazeta va jurnallarda bosib chiqariladi.

3. Hujjatlardan foydalanishning asosiy shakllaridan yana biri o'quv xonalari-da foydalanishdir. Har bir davlat arxivida o'quv xonasi bo'ladi. Tarixchilar va boshqa tadqiqotchilar hujjatlardan bevosita arxiv o'quv xonasida foydalanishadi.

⁵⁰ Алимов И. А. Архившунослик....— Б. 63.

4. Ko'rgazmalar tashkil qilish, albomlar, plakatlar chiqarish.
5. Ilmiy-ommabop risolalar, matbuot uchun maqolalar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar tayyorlash.
6. Hujjatlardan foydalanishning yana bir yo'li bu arxivda tarix darslari o'tishni tashkil qilish va o'quv yurtlari uchun ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlashdir⁵¹.

Arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilar: arxiv hujjatlaridan foydalanish tartibiga rioya qilishi; arxiv hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashi; arxiv hujjatlariga yetkazilgan shikastlar yoki arxiv hujjatlaridagi yetishmovchiliklar aniqlanganligi to'g'risida tezkor ravishda arxiv va idoraviy hodimlariga xabar berish; arxiv hujjatlaridan olingan ma'lumotlarni buzib ko'rsatish yoki soxtalashtirishga yo'l qoymasligi shart. Arxiv hujjatlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.⁵²

Kino, surat, ovozli hujjatlardan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilardir: hujjatlarning tarkibi va mazmuni haqida tashabbusli axborot tayyorlash, mavzuli so'rovnomalarni bajarish, hujjatlar ko'rgazmasini tashkil etish, mavzuli suratlar to'plami va surat albomlarini tayyorlash, kino, surat, ovozli hujjatlarni e'lon qilish, tele va radioeshittirishlar tayyorlash, tadqiqotchilarga o'quv yoki kinozalda, eshitish xonasida ishlash uchun hujjatlarni vaqtincha foydalanishga berishda iborat hisoblanadi. Davlat arxividagi kino, foto, ovozli hujjatlarning tarkibi va mazmuni haqida tashabbusli axborot tayyorlash tegishli joyga quyidagi ma'lumotlarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi: axborot xatlari, mavzuli ro'yxatlar, mavzuli ma'lumotnomalar, shuningdek, arxiv ma'lumotnomalari (yo'lko'rsatgich) bilan tanishtirish yo'li orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Tashabbusli axborot xati rasmiy hujjat bo'lib, o'zida ma'lum bir yo'nalishdagi davlat arxivining kino, surat, ovozli hujjatlarning qisqacha mazmuni va mavjudligini bayon etadi. Tashkilot so'roviga binoan tuzilgan axborotli xat barcha

⁵¹ Алимов И. А. Архившунослик... — Б. 64

⁵² Ўзбекистон Республикаси “Архив иши тўғрисида”ги қонунинг 26-моддаси. — Тошкент, 2010 йил 15 июн.

berilgan savollarga javob berish kerak. Kino, foto, ovozli hujjatlarning mavzuli ro'yxati – ma'lum bir mavzu bo'yicha bo'lgan kinohujjatlar, foto hujjatlar va ovozli hujjatlar sarlavhalarining ishlab chiqarilgan sanasi va qidiruv ma'lumotlari bilan birgalikda tuzilgan ro'yxatidan iborat bo'ladi. Mavzuli ro'yxat quyidagi ma'lumotlarni aks ettiradi: hisob birligi raqamlari (foto hujjatlar shifrlari); film, kinojurnal, kino-telesyujet nomi, ishlab chiqarilgan sanasi, kinohujjat ishlagan studiyaning nomi, foto hujjat mazmuni, suratga olingan vaqti va joyi, ovozli hujjatni ishlab chiqargan tashkilot nomi, vaqti va hujjatning nomi.

Hujjatlarning tasniflari ma'lum bir tamoyil bo'yicha joylashtiriladi: davriy, geografik, hujjat ahamiyatiga ko'ra va boshqalar. Ro'yxatda hujjatlar qanday maqsadga ko'ra foydalanishiga qarab hujjatlar ketma-ket joylashtiriladi. Mavzuli ro'yxat to'liq yoki tanlab olingan bo'lishi mumkin. To'liq mavzuli so'rov mavzu bo'yicha barcha kino, foto, ovozli hujjatlarni o'z ichiga oladi. Tanlab olingan mavzuli ro'yxat esa, mazmuni bo'yicha qiziqroq, kompozitsiya tarafidan eng yaxshi, ma'lum bir davrga tegishli hujjatlar tartibidan iborat bo'ladi. Mavzuli ma'lumotnomada davlat arxivida ma'lum bir mavzu bo'yicha kino, surat, ovozli hujjatlarni mavjudligi, ularning arxiv raqamlari, shuningdek, tanlangan mavzu bo'yicha hujjatlarning umumiy miqdori, hujjatda o'z aksini topgan voqealar sanalari haqida bayon etiladi. Kino, foto, ovozli hujjatlardagi ma'lumotlar joylashish tartibi uni qay maqsadda foydalanishiga qarab belgilanadi. Axborotli hujjatlar ularda ko'rsatilgan kino, foto, ovozli hujjatlardan foydalanishdagi tavsiyalarga ham ega bo'lishlari mumkin. Kino, foto, ovozli hujjatlarga doir mavzuli so'rovlarni davlat arxivi belgilangan tartibda amalga oshiradi. So'rov arxiv xodimiga kelib tushadi va so'rov mavzusi bo'yicha arxivda mavjud bo'lgan hujjatlarni topadi, zarur bo'lgan nusxalar tayyorlash uchun talabnoma rasmiylashtiriladi va buyurtmachi uchun nusxalarning qisqacha mazmunini tayyorlaydi. Davlat arxivi mavzuli so'rov ijrosi, nusxalar tayyorlash va ularni pochta orqali buyurtmachiga jo'natish ishlarini ma'lum bir to'lov evaziga bajaradi. Har bir olingan so'rovga axborot xati tuziladi. Axborot xatida buyurtmachining qiziqtirgan hujjatni mavjudligi va

qisqacha mazmuni haqidagi ma'lumotlar bo'ladi. Ularni sanalari hamda so'rovni bajarish paytida foydalanilgan ilmiy-ma'lumotnoma apparati (ro'yxatlar, kataloglar va shu kabilar) ko'rsatiladi. So'rov mavzusi bo'yicha zarur hujjatlar arxivda bo'lmagan taqdirda tegishli javob tayyorlanadi, unda hujjatlarni yo'qligi sabablari ko'rsatiladi, qayerga murojaat qilish lozimligi tavsiya etiladi, shuningdek javobni tayyorlashda foydalanilgan arxivni ilmiy-ma'lumotnoma apparati (ro'yxatlar, kataloglar va shu kabilar) ko'rsatiladi. Axborot xati va javob arxiv yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil tashkilot hisoblansa, idoraviy arxiv blankasida ikki nusxada tuziladi yoki idoraviy arxiv qaysi tashkilot tarkibida bo'lsa, o'sha tashkilot blankasida tuziladi. Axborot xati va javobga tashkilot yoki idoraviy arxiv rahbariyati va ma'lumotnomani tayyorlagan ijrochilar tomonidan imzolanadi. Hujjatlar ko'rgazmasi ommaviy ravishda namoyish qilishga mo'ljallangan va muayyan mavzudagi hujjatlarni badiiy bezatilgan to'plamidir.

Ko'rgazmalar tashkil qilish, albomlar, plakatlar chiqarish kabilarni o'z ichiga oladi. Tarixiy yubeleylarga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinadi, albom va plakatlar chiqariladi, ko'rgazmalarga hujjatlar, fotosuratlar, xaritalar, kitoblar, varaqalar va boshqa boshqa manbalar qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ilmiy-ommobop risolalar, marbuot uchun maqolalar, radioeshittirish va teleko'satuvlar tayyorlash uchun ham keng foydalaniladi. Davlat arxivlarining ilmiy xodimlari arxiv hujjatlari haqida ayrim tarixiy mavzular bo'yicha risolalar tayyorlashadi. Ularning mavzulari muhim tarixiy voqealarga bag'ishlangan bo'ladi. Bundan tashqari ular matbuotda arxiv to'g'risida, uning hujjatlari to'g'risida maqolalar yozishi, televideniye va radioda chiqishlar qilishi, muhim ahamiyatiga molik hujjatlarni chop etishda foydalanishlari mumkin.⁵³

Masalan, "Turkiston albomi" - fotosuratlar va rangli rasmlardan tuzilgan albom. Turkiston general gubernatori K. P. Kaufman topshirig'iga binoan, etnograf, sharqshunos olim A. L. Kun (1840—1888) tomonidan 1871—72 yillarda

⁵³ Алимов И. А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. Андижон, 2005 – Б. 64

tayyorlangan. “Turkiston albomi” 447 kartochka varaqdan iborat bo‘lib, 1262 fotosuratlar va bo‘yalgan rasmlardan tuzilgan. Etnografiya, hunarmandchilik, arxeologiya va tarix bo‘limlaridan iborat. “Turkiston albomi”da XIX-asrning 2 yarmidagi hunarmandchilik; xo‘jalik turlari, urf-odat va turli marosimlarni o‘tkazish, o‘zbeklarning antropologik tiplari, shahar va qishloq hayoti, shaharlar, vodiylarning manzaralari aks ettirilgan. “Turkiston albomi” 7 nusxada tayyorlangan. Bir nusxasi O‘zbekiston milliy kutubxonasining noyob kitoblar bo‘limida saqalanadi.⁵⁴

Ko‘rgazmalar doimiy (biror muassasada uzoq muddat davomida ko‘rsatishga mo‘ljallangan) va ko‘chma bo‘ladi (turli muassasalarda muayyan muddat ichida namoyish qilishga mo‘ljallangan). Ko‘rgazmalar arxivning o‘z tashabbusi bilan manfaatdor tashkilotlarni iltimosiga ko‘ra, yuqori organlarni maxsus farmoyishi yoki birorta tashkilot bilan birgalikda tashkil etiladi. Ko‘rgazmalarda kino, foto, ovozli hujjatlar nusxalari ko‘rinishida namoyish etiladi. Ko‘rgazmani tayyorlash va tashkil etish ishlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: mavzu tanlash, mavzuga doir adabiyotlarni o‘rganish, mavzu bo‘yicha hujjatlarni topish, mavzu rejasini tuzish, hujjatlarni namoyish qilishga tayyorlash, ko‘rgazmani montaj qilish va badiiy bezatish, javobgar ijrochilarni belgilash va boshqalardan iborat. Davlat arxivi boshqa tashkilotlar bilan ko‘rgazmalar tayyorlashda ular bilan ishlash sharoiti va vazifalar taqsimotini kelishib oladi. Ko‘rgazma mavzusi muhim sanalarni, ularning ahamiyatini, arxivda hujjatlarning borligini hisobga olgan holda belgilanadi. Hujjatlarni aniqlash va tanlab olish kataloglari, ro‘yxatlari, montaj varaqlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Kinohujjatlar montaj stolida qarab chiqiladi. Hujjatlarni ko‘rgazma uchun aniqlash chog‘ida ularni siyosiy ahamiyati va ilmiy qimmatdorligi, tasviriylar sifatleri hisobga olinadi. Bundan avval foydalanilmagan hujjatlarga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ko‘rgazmani badiiy bezatish va montaj qilish mavzular rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ko‘rgazmani mavzular rejasini

⁵⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiston_albomi

uning tarkibini, hujjatlar va yordamchi materiallar (chizmalar, diagrammalar va shu kabilarni; bosma nashrlar, muzey eksponatlari)ning taxminiy sonini belgilab beradi. Ko'rgazmani tarkibi va uning bo'limlari mazmunini ochib boradi. Mavzular rejasi tarixiy ma'lumotnomani o'z ichiga oladi, unda ko'rgazmaning mavzusi ochib beriladi. Mavzular rejasi davlat arxivining uslubiy komissiyasi tomonidan muhokama etiladi, zarur hollarda manfaatdor tashkilotlar bilan kelishiladi va arxiv rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ko'rgazma uchun tanlab olingan barcha hujjatlar va ularni nusxalari annotatsiyalar bilan ta'minlanadi, suratga olingan sanasi, joyi va muallifi, filmning nomi, yozuvi, ishlab chiqarilgan yoki yozuv tayyorlangan studiya (tashkilot)ni nomi, davlat arxivi nomi ko'rsatiladi. Idoraviy arxiv ko'rgazmaga odamlar kelishini tashkil etish uchun uning ochilishi haqida matbuot, televidenie, radio orqali xabar beradi. Hujjatli nashrlar tayyorlash: mavzu tanlash, hujjatlarni izlab topish va tanlab olish nusxa ko'chirish, matn tanlash va uzatish, nashrga ilmiy-ma'lumotnoma apparatini tuzish, shuningdek nashriyotlar bilan ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi⁵⁵. Kino, foto va ovozli hujjatlarni nashr etish davlat arxivini tashabbusi bilan, shuningdek gazeta va jurnallar tahririyatlari, nashriyotlar bilan birgalikda tayyorlanadi, ular bilan oldindan maqolalarning mavzulari, suratli hujjatlar mavzusi, shuningdek ayrim kinokadrlar va boshqa materiallar to'plami, ularning hajmi va tayyorlash muddati kelishib olinadi. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar davlat arxivlari tomonidan televidenie va radiostudiyalari bilan hamkorlikda arxiv yoki studiyalar tashabbusi bilan tayyorlanadi. Teleko'rsatuv yoki radioeshittirish intervyu, suhbat, xronika, ma'lumot, reportaj shaklida amalga oshiriladi. Teleko'rsatuv va radio eshittirishlarning tayyorlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: ko'rsatuv yoki eshittirish mavzusini tanlash; hujjatlarni izlash, o'rganish va zarur hollarda boshqa arxiv va muzeylar hujjatlarini tanlash; matnni tayyorlash. Davlat arxivi oldindan tegishli studiya bilan ko'rsatuv yoki eshittirishning mavzusi va muallifi, arxiv va studiyaning majburi-

⁵⁵ Исакова М. С. Архив хужжатларини нашрга тайёрлаш масалаларига доир. // Сборник материалов конференции «Историографические чтения – 2010». – Ташкент: Янги нашр, 2011. – Б. 74–80.

yatlari, ko'rsatuv yoki eshittirishning davomiyligi, tayyorlash muddati va hokazolar haqida kelishib oladi. Kino, foto, ovozli hujjatlardan foydalanilgan holda tayyorlangan ma'ruzalar davlat arxivi tashabbusi, shuningdek turli tashkilotlar so'roviga binoan arxivda yoki boshqa tashkilotlarda o'tkazilishi mumkin. Ma'ruza mavzusiga qarab kino, foto, ovozli hujjatlar illyustratsiya sifatida xizmat qilishi yoki ma'ruzaning asosiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kinohujjatlar ma'ruzalarda tegishli mavzudagi hujjatlarni ekranda ko'rsatish yo'li bilan suratli hujjatlar davlat arxivida saqlanayotgan va maxsus ko'rsatish uchun tayyorlangan diapozitiv (slaydlar) yordamida, suratli ko'rgazma va stendlar tayyorlash yo'li bilan, ovozli hujjatlar esa eshitish yo'li orqali foydalaniladi. Epizodik leksiya va ma'ruzalar bilan bir qatorda davlat arxivi mavzuli kechalar turkumini tashkil etishi mumkin. Ushbu kechalar davomida kino, surat namoyish etilishini hamda ovozli hujjatlar eshittirilishi mumkin. Davlat arxivi keng jamoatchilikni kino, foto, ovozli hujjatlar tarkibi va mazmuni bilan tanishtirish maqsadida uchrashuv-kechalar uyushtirilishi mumkin. Uchrashuv-kecha tashkil etish mavzu, auditoriya tarkibi, kecha o'tkazish vaqti va joyini aniqlash ishlari bilan boshlanadi. Keyin ma'ruzalar mazmuni va namoyish etiladigan va eshittiriladigan kino, foto, ovozli hujjatlarning tarkibi, ma'ruzachilar va mazkur uchrashuv-kecha mas'ullari familiyalari, shuningdek kecha o'tkazish tartibi ko'rsatilgan dastur tuziladi. Uchrashuv-kecha tashkil etish bo'yicha hujjatlar tashkilotning uchrashuv - kecha o'tkazish haqidagi so'rovi, dasturi, ma'ruzalar matni, namoyish etiladigan va eshittiriladigan kino, foto, ovozli hujjatlar ro'yxatlari, taklifnoma va boshqalar yagona yig'majildga to'planadi. Davlat arxivi turli tashkilotlarning jamoalari uchun ekskursiyalar ham tashkil etishi mumkin. Ekskursiyalar tashkilot rahbariyati bilan kelishuv hamda arxiv direktori nomiga yozilgan rasmiy xat asosida tashkil etiladi. Ekskursiyalar sharhli (arxiv faoliyati asosiy yo'nalishlari, hujjatlar tarkibi va mazmuni to'g'risida) va mavzuli (ma'lum bir mavzuga oid hujjatlar to'g'risida) bo'lishi mumkin. Ekskursiyaga tayyorgarlik mavzusi, mazmuni, o'tkazish tartibi va mas'ul ko'rsatilgan reja asosida olib boriladi. Bunda hujjatlarni ko'rish va eshitish, fotosuratlar

ko'rgazmasi va fotoalbomlar tayyorlash naqadar maqsadga muvofiqligi aniqlanadi, shuningdek ekskursiya o'tkazish kuni va vaqti belgilanadi. Kinodasturlar va kinoto'plamlar davlat arxivlari tomonidan o'tmish haqidagi kinohujjatlarni ko'rsatish maqsadida tayyorlanadi. Kinodastur davlat arxivi tomonidan tashkil etilgan turli xil marosimlarda bir yoki bir necha marta ekranda namoyish etish uchun mo'ljallangan kinohujjatlar to'plamidir. Kinodastur davlat arxivida film, maxsus ko'rsatuv yoki kinojurnalning to'liq to'plamining pozitiv nusxalaridan tuziladi. Dasturga filmlarning ayrim qismlari, kinojurnallar syujetlari va alohida kinosyujetlar ham kiritilishi mumkin. Kinodastur tuzishda film, maxsus ko'rsatuv, kinojurnalning montaj tartibini o'zgartirish man etiladi. Kinodastur mavzusi, unga kiritiladigan kinohujjatlar tarkibi va mazmuni uchrashuv-kechaning mavzusiga qarab tanlab olinadi. Kinoto'plam – arxivda ma'lum bir ketma-ketlikda montaj qilingan kinotasvirdir.⁵⁶ Kinoto'plamlar maxsus tayyorlangan bir necha film, maxsus ko'rsatuv, kinojurnallar pozitiv nusxalaridan tayyorlanadi. Kinoto'plamlar turli marosimlarda foydalanish uchun tayyorlanadi va tashkilotlarga vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Kinoto'plam uchun tanlangan mavzuga oid manba va adabiyotlarni o'rganish asosida arxiv katalogi va montaj varaqlari bo'yicha kinohujjatlar tanlab olinadi. Kinoto'plamga kiritilishi lozim bo'lgan hujjatlar ekran yoki ovoz montaj uskunasi ko'rib chiqish yo'li bilan tanlab olinadi. Tanlab olingan kinohujjatlar bo'laklaridan nusxalar tayyorlanadi. Laboratoriyalarda tayyorlangan nusxalar kinoto'plam senariysini tuzish maqsadida ekranda ko'rib chiqiladi. Tayyorlangan kinoto'plam arxivning uslubiy komissiyasi a'zolari tomonidan ko'rib chiqilib, muhokama etiladi. Suratlarni aniqlash davlat arxivi tomonidan muhim tarixiy voqealar va yubiley sanalariga atab o'tkaziladi. Surat tanlovlari – ma'lum bir mavzuga oid suratli hujjatlar nusxalaridir. Surat tanlovlari tayyorlash tartibi ko'rgazma tayyorlash tartibi bilan bir xil bo'ladi. Surat tanlovi hajmi bo'yicha katta bo'lishi (30-40 surat hujjat) kerak emas. Surat tanlovi tiraji

⁵⁶ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати.... – Б. 51.

tashkilot so'rovi, mavzuning muhimligi va arxivning texnik imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Arxiv hujjatlari bo'yicha surat albomlari davlat arxivi o'quv zalida, ekskursiyalar, leksiylar, ma'ruzalar davomida namoyish etish, shuningdek tashkilotlar buyutmaları asosida bir yoki bir necha nusxada tayyorlanadi. Muhim yubiley sanalariga bag'ishlangan ko'p tirajli surat albomlarni tayyorlash ishlari davlat arxivi va nashriyot hamda boshqa tashkilotlar bilan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladi. Ovozli hujjatlar eshitish dasturi arxiv tomonidan arxiv va boshqa tashkilotlarda foydalanish uchun mavzuli reja asosida tayyorlanadi. Dastur tayyorlashda ovozli hujjatlar lavhalari nusxalaridan foydalaniladi. Eshitish dastur tayyorlash bo'yicha mas'ul bo'lgan davlat arxivi xodimi tomonidan amalga oshiriladi va kirish so'zlari bilan ta'minlanadi. Davlat arxivlarida tadqiqotchilar ishlarini tashkil etish o'quv, ko'rish va eshitish xonalarida amalga oshiriladi. Tadqiqotchilarning hujjatlari va ilmiy-ma'lumotnoma apparati bilan ishlash tartibi amaldagi qoidalar, yo'riqnoma va mazkur qoidalar bilan belgilanadi. Tadqiqotchining kino, surat, ovozli hujjatlar bilan ishlashga uni yuborgan tashkilotning rasmiy xati asosida amalga oshiriladi. Xatda tadqiqotchining ismi, sharifi, familiyasi lavozimi, tadqiqot mavzusi, davomiy chegaralari va maqsadi bayon etiladi. Xat hujjatlarning saqluvi o'z vaqtida qaytarilishi kafolatini berishi kerak. Mavzu o'zgargan hollarda arxivga yangi xat tayyorlanadi⁵⁷. Chet el tadqiqotchilarining kino, surat, ovozli hujjatlar bilan ishlashga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ruxsati bilan qo'yiladi. Hujjatlardan foydalanish uchun ruxsat rahbariyat tomonidan mavzuga qarab bergan bir yildan oshmagan muddatga beriladi. Belgilangan muddat o'tgandan so'ng tadqiqotchi arxivga yangi xat taqdim etishi lozim. Tadqiqotchi ishi uchun javobgar arxiv tomonidan hujjatlarni rasmiylashtirish, arxiv hujjatlari tarkibi va mazmuni haqida maslahat berish, kino, ovozli hujjatlarni ko'rish va eshitish, hujjatlar nusxasini tayyorlash uchun talabnoma rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi. Tadqiqotchi tomonidan kino, surat,

⁵⁷ Правила работы пользователей в читальных залах государственных архивов Республики Узбекистан. – Ташкент, 2001. – С. 7.

ovozli hujjatlarni tanlash ilmiy ma'lumotnoma apparati, kataloglar va unga tegishli ko'rsatgichlar, hujjatlar tasnifi, montaj varaqalari, suratli hujjat albomlar ichki tasnifi yordamida amalga oshiriladi⁵⁸. Davlat arxivining kino, surat, ovozli hujjatlar va video-ovozli yozuvlari, hujjatlar tasnifi, nashrlari bilan ishlash uchun tadqiqotchi maxsus talabnomani to'ldiradi. Talab etilgan hujjatlarni qabul qilgach, tadqiqotchi hujjatlar holatini tekshirib talabnomaga imzo qo'yadi. Tadqiqotchi imzosi qabul qilgan hujjatlardan foydalanish, ularning saqlovini ta'minlashdagi javobgarlikning o'z zimmasiga olganligini tasdiqlaydi. Kino, surat, ovozli hujjatlar tadqiqotchilarga belgilangan tartibda beriladi. Davlat arxivi arxiv hujjatlarining ilmiy-texnik qayta ishlovi va restavratsiyasi, shuningdek ularning qoniqarsiz holati sababli ulardan foydalanishni chegaralab qo'yish huquqiga ega. Kinohujjatlarni ko'rish ovoz montaj uskunasi va arxiv kinozali ekranida amalga oshiriladi. Zarur hollarda tadqiqotchi qog'oz bo'laklari yordamida o'ziga kerakli kadrlarni hujjatning pozitiv nusxasida belgilashi mumkin. Tadqiqotchi ishi uchun mas'ul bo'lgan arxiv xodimi tomonidan ushbu belgilar pozitivdan kontratipga ko'chiriladi.

Kontratip – oraliq pozitiv yoki bevosita negativdan bosish yo'li bilan olingan va kino hamda fotohujjatlarni ko'paytirishga mo'jallangan negativ dublikati hisoblanadi⁵⁹. Suratli hujjatlar bilan tadqiqotchi katalog varaqlaridagi surat nusxalar orqali tanishadi. Ovozli hujjatlar ularni eshitish xonasida eshitiladi. Bunday hollarda bir kunda eshitish vaqti 3 soatdan ortiq bo'lmagan hujjatlar beriladi. Arxivda ovozli hujjatlar matni bo'lgan hollarda tadqiqotchilarga ushbu matnlar ham tanishish uchun beriladi. Arxiv hujjatlari bilan tanishishda tadqiqotchi o'z ishini yengillashtirish maqsadida ayrim texnik asbob va uskunalardan (mikrokalkulyator, shaxsiy kompyuter) foydalanishi mumkin. Bunda albatta, arxiv direktori ruxsati bo'lishi shart va mazkur uskunalar hujjatlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bugungi kunda arxivlarda foydalanishni yengillashtirish maqsadida chet el grantlari asosida yangi axborot tenologiyalari jalb qilinmoqda.

⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси “Архив иши тўғрисида”ги Қонунинг 26-моддаси. – Тошкент, 2010 йил 15 июнь.

⁵⁹ Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати... – Б. 46

Bu esa o'z navbatida arxiv xodimlar uchun ham, foydalanuvchilar uchun qulaylik tug'dirmoqda. Jumladan, 2008- yil 21- avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 949-PQ-sonli "Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivlarini rekonstruksiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bu qarorga asosan, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxivlarini axbortlashtirish" nomli KOICA loyihasini ishlab chiqildi. Mazkur loyihaga O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Respublika markaziy davlat arxivlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va elektron fondlarni tashkil etish, ularni arxiv materiallarini raqamlashtirish hamda qayta tiklash va zamonviy uskunalar bilan jihozlash masalalari asos qilib olindi. Loyiha asosida 3ta Markaziy davlat arxivlariga, shular qatorida O'zbekiston Respublikasi kinofotofono hujjatlari Markaziy davlat arxiviga ham maxsus dastur o'rnatildi. Shuningdek, mazkur loyiha asosida maxsus texnika vositalari ham keltirildi. Foto hujjatlarni sifatli tarzda raqamlashtirish imkonini beradigan skaner (EPSON 700), fono hujjatlarni raqamlashtirish uchun mo'ljallangan texnika va dastur o'rnatildi. Bugungi kunda mazkur texnika vositalari orqali hujjatlarni raqamlashtirish ishlari jadal suratlarda davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi kinofotofono hujjatlari Markaziy davlat arxivida tashkil etilgan raqamlashtirish ishlari arxiv hujjatlaridan foydalanishda tadqiqotchilar uchun hamda arxiv xodimlarining o'zlari uchun ham juda katta qulayliklar yaratmoqda. Hujjatlarni so'ralgan mavzu bo'yicha ortiqcha qiyinchiliklarsiz tezkor topish imkoniyati paydo bo'ldi⁶⁰. Mamlakatimiz arxiv tizimida amalga oshirilgan ishlar hammasi davlatimiz tarixiga oid ma'lumotlarni jamlash, saqlash, hisobga olish va foydalanishni tashkil etishga qaratilgan ishlardir. Bundan asosiy maqsad, arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilariga qulaylik yaratishdan iborat.

⁶⁰ Закирова Д. Аудиовизуал меросни рақамлаштиришнинг долзарб масалалари..... – Б. 149.

XULOSA

Bugungi kunda 27 - oktyabrni “Butunjahon audiovizual merosi kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu esa oʻz navbatida ajdodlarning butun jahon merosini saqlash va kelajak avlodga oʻtmishdagi xotiralarni yetkazish berish hamda, insoniyatning tarixiy madaniy qadriyatlarini kelajak avlodga etkazishdan iborat.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning oʻz yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, oʻzligini anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu- tabiiy hol. Odamzod borki avlod-ajdodi, kimligini, nasl-nasabini, oʻzi tugʻulib voyaga etgan qishloq, shaxar, xullaski, Vatanini tarixini bilishni istaydi⁶¹ shunday ekan tarixni anglash, uni oʻzlashtirishda arxiv manbalari muhim vosita vazifasini bajaradi. Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta yutuq – bu jamiyatimizdagi oʻzaro mexr-oqibat va hamjihatlik muhitidir va biz bu bebaho boylikni asrab-avaylash uchun bor va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz⁶², deb taʼkidlagan edi prezident Sh. Mirziyoev.

1980-yilda YUNESKOning bosh konferensiyasi tashkilotning 33 ijrochi direktori tashkilotning 33- Bosh sessiyasida 27- oktyabr kunini “Butunjahon audiovizual merosi kuni” rezolyutsiyasini tasdiqladilar, yaʼni 1980- yilda qabul qilingan qarorga muvofiq, harakatlanuvchi tasvirlarni saqlash va ularni muhofaza qilish ishlarini belgilandi. Audiovizual merosiga – radio-teledasturlar, audio hamda video yozuvlari kiradi. Ommaviy audiovizualni targʻib qilish XX asrga toʻgʻri keladi, hozirgi kunda esa boshlangʻich maʼlumot tarqatuvchi vositadir. Ular eshitish qobiliyati, oʻtkirlik juda yuqori darajada boʻlgan insonlar va ularning aksi boʻlgan inson uchun moʻljallangandir. Boshqacha qilib aytganda, audiovizual hujjatlari, anʼanaviy yozma tarqatuvchilarga qoʻshimchalar kiritishi boʻldi. YUNESKOning bosh direktori Irina Bokovaning soʻzlariga koʻra, audiovizual manbalar xuddi inson koʻzgusining ijodiy oynasi kabi hamda bizning madaniyatimizni tirik

⁶¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 3.

⁶² Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 479.

to'qima sifatida ko'rib chiqish lozimdir. Ushbu merosni saqlash uning haqiqiy qiymati katta ahamiyatga ega. Biroq, ko'pgina qismi tiklab bo'lmas darajada barbod bo'lgan, ya'ni uning qiymatini qadrini bilmaslik natijasida, barcha audiovizual boyliklar texnik qoloqligi sababli kamayib bormoqda – deydi. 1997-yilda tashkil etilgan Xalqaro resstri “Dunyoni eslash” (xotirlash) hozirgi kunda 200 nomdagi hujjatli meros, ya'ni ular tarkibiga audiovizual meroslar, butundunyoda ahamiyatga ega bo'lgan meroslar va audiovizual tarixi kiradi. Audiovizual tarixi Rossiya davlatida ham televizion audiodasturlar ko'rinishida saqlanib kelmoqda. Ilmiy maqsadda e'lon qilinuvchi kino, surat va ovozli hujjatlarni nashr etishda umumiy kompleks hujjat, voqea, hodisa yoki jarayon olinib, uning qisqacha mazmunini keng ochib berish, kino, foto va ovozli yozuvni aniq texnik ahamiyatini izohlash, ilmiy ma'lumotnoma apparatida tarixnavislik, madaniyatshunoslik va arxeografik tahlil namoyon bo'lishi lozim. Shu jumladan tadqiqot jarayonida quyidagilarni aniqlandiki, birinchidan, audiovizual materiallar yaratilish tarixi, ya'ni fotografiya, kino ova ovozli hujjatlar paydo bo'lishi va qachondan boshlab e'tiborga olinishi, tarixni yoritishdagi manba sifatidagi ahamiyati oshganligi; ikkinchidan, audiovizual manbalarning tatqiqotchi tomonidan uning turlari va ahamiyatini yotitish jarayoni o'rganilishi; uchinchidan, audiovizual merosni saqlovchi arxivlar faoliyatini aniqlash va arxivlarda audiovizual materillardan foydalanish usullarini o'rganib chiqildi.

O'z navbatida ushbu materiallardan O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari, kollejlari va litseylarda tarix fanini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin. 1943-yili tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasining kinosuratovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi faoliyatini keltirish mumkin. “Arxivlar to'g'risida” gi qonun doirasida arxivni kino, foto va ovozli hujjatlar bilan butlash muammosi qisman hal etilmoqda qonun qabul qilingandan so'ng arxivga saqlash uchun topshiriladigan kino, foto, ovozli hujjatlarni qabul qilish jarayoni qaytadan yo'lga qo'yila boshlandi. Jumladan, hozirgi kunga qadar arxiv saqlovxonasiga O'zbektelefilm kinostudiyasi tomonidan 1992- yilgacha ishlab chiqarilgan kino hujjatlar,

O'zbekiston telegraf agentligi tomonidan 1994- yilgacha suratga olingan fotohujjatlar kelib tushgan. Shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 30-oktyabridagi 482-sonli "Arxiv ishi bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan kino surat ovozli hujjatlar va videofonogrammalar tayyorlovchi davlat korxona va muassasalari, tashkilotlari va birlashmalari o'z hujjatlarini tayyorlangan vaqtdan boshlab ko'pi bilan 3 yildan so'ng davlat arxiviga Milliy arxiv fondining bir qismi sifatida topshirishlari shart.

Bitiruv malakaviy ishi natijasida ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilish natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- har bir viloyat, tuman, shahar arxivlar hujjatlarini yig'ib tuman shahar, viloyat kino surat ovozli hujjatlar saqlanadigan alohida arxiv tashkil qilinishini unada hujjatlarni yaxshi saqlanishini amalga oshirilishi. Chunki qo'goz hujjat bilan audiovisual hujjatlar bir joyda bir xil haroratda saqlanishi mumkin emas.
- mamlakatimizdagi har bir viloyat, tuman, shahar arxivlar hujjatlarini elektronlashtirib, internet saytlari ochib, unda O'zbekiston tarixini aks ettiruvchi audiovizual materiallarni joylashtirish va arxiv hujjatlaridan foydalanuvchilar uchun sharoitlar yaratib berish;
- viloyat, tuman va shahar arxivlarida alohida maxsus xonalar tashkil etib, ularda audiovizual hujjatlar saqlovini ta'minlash ishlarini tashkil qilish;
- xorij arxiv xodimlari bilan tajribalar almashish, shuningdek hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish;
- tarixiy tadqiqot olib boruvchi tadqiqotchilar uchun, tarixchilar uchun Markaziy davlat arxivlari hujjatlaridan foydalanish uchun yanada kengroq imkoniyatlarini yaratish.

Mavzu bo'yicha xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, audiovizual materillar ya'ni kino, foto va fono hujjatlarni o'rganish sababi shundaki, inson fotografiyani tomosha qilayotgan paytda ushbu manbadagi aks etgan holat,

jarayon, vaziyat, davr sururini his etadi. Inson tafakkurida huddi o'sha davrda hayot tasviri namoyon bo'ladi. Demak, kino foto va fono hujjatlardan foydalanish harbir tarixchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal degan naql bejiz aytilmagan ota-bobolarimiz tomonidan. Kino, surat va ovozli tasmalarni eshitish va ko'rish orqali inson psixologiyasiga qanchalik ta'sir etish mumkinligi hozirda fan uchun sir emas, bular targ'ibot tashviqot va o'quv tarbiya maqsadlarida, tarixiy va badiiy film va spektakllarni sahnalashtirish, muzeylar, ko'rgazmalar tashkil etish uchun jalb etiladi. Demak, mamlakatimizda hali arxiv sohasida ham qilinadigan ishlar dolzarb muammo darajasiga ko'tarilgani yo'q. Bu biz yoshlarni asosiy vazifamizga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

I. Bitiruv malakaviy ishi nazariy-metodologik asos bo'lgan adabiyotlar:

- 1.1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 32 б.
- 1.2. Каримов. И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.3. Каримов. И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
- 1.4. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
- 1.5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
- 1.6 Ўзбекистон Республикаси “Архив иши тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2010 йил 15 июнь.
- 1.7. Правила работы пользователей в читальных залах государственных архивов Республики Узбекистан. – Ташкент, 2001.

II. Adabiyotlar:

- 2.1. Алимов И. А. Архившунослик. Ўқув кўлланма. – Андижон, 2005. – 148 б.
- 2.2. Герасимов С. Кино санъати хақида. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962. – 127 б.
- 2.3. Дармонова М.А. Кино, сурат ва овозли ҳужжатларнинг тарихий манба сифатида ўрганилиши. // Тарихий манбашунослик муаммолари. – Т., 2013. – Б. 87–91.
- 2.4. Исакова М. С. Архив ҳужжатларини нашрга тайёрлаш масалаларига доир. // Сборник материалов конференции «Историографические чтения – 2010». – Ташкент: Янги нашр, 2011. – С. 74–80.

2.5. Шарапов Ш. Фотохаваскорлар учун қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 64 б.

2.6. Файзиева Р., Шамсутдинов Р. Хужжатлар. Архив атамалари изоҳли луғати / Маъсул муҳаррир. П. Н. Неъматов. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000. – 112 б.

2.7. Arslonzoda R. Arxivshunoslik: Muammoli ma'ruzalar matni. – Farg'ona, 2007.

2.8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001.

2.9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002.

2.10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002.

2.11. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.

2.12. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2003.

III. Xorijiy adabiyotlar:

3.1. Асфадиярова И. Г. Аудиовизуальные архивы: учебно-методическое пособие. – Уфа: Уфимская типография, 2013. – 198 с.

3.2. Эдмондсон Р. Аудиовизуальное архивирование: философия и принципы. Подготовлено. – Париж: ЮНЕСКО, 2004. – 311 с.

IV. Davriy nashrlar materiallari:

4.1. Исакова М. С. Использование аудиовизуальных источников в исторических исследованиях. // ЎзМУ хабарлари. – 2006. – №4. – С. 43–45.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

5.1. Darmonova M. A. Tarixiy tadqiqotlarda audiovizual manbalardan foydalalanishning usul va tamoillari. Magistrlik darajasini olish uchun...dissertatsiya. – Т., 2014. – 96 б.

VI. Internet ma'lumotlari

6.1. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Берлинский_фонограммархив](https://ru.wikipedia.org/wiki/Берлинский_фонограммархив)

6.2. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Аудиовизуальные_архивы](https://ru.wikipedia.org/wiki/Аудиовизуальные_архивы)

6.3. <http://rgakfd.ru/obshchaya-informaciya>

6.4. <http://dx.doi.org/10.15826/qr.2015.3.117>

6.5. <http://xn--80afe9bwa.xn--p1ai/ob-arkhive/history.shtml>

6.6. <http://tsdkffa.archives.gov.ua/>

6.7. <http://www.kfdz.kz/index.php?module=History>

6.8. <http://.rgafd.ru>

6.9. <http://uz.infocom.uz/2014/11/04/dastlabki-ovoz-yozib-oluvchi-va-uzatuvchi-qurilmalar/>